

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI**

MUXAMMADIYEV DADAXON ABDUXAMIDOVICH

**ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATIDA
METAFORIK TAFAKKUR TABIATI
(Eshqobil Shukur va Abduvali Qutbiddin she’rlari asosida)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Muxammadiyev Dadaxon Abduxamidovich

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida metaforik tafakkur tabiati
(Eshqobil Shukur va Abduvali Qutbiddin she’rlari asosida) 3

Mukhammadiev Dadakhon Abdukhamidovich

The nature of metaphorical thinking in modern Uzbek poetry
(based on the poems of Eshqobil Shukur and Abduvali Qutbiddin) 27

Мухаммадиев Дадахон Абдухамидович

Природа метафорического мышления в современной узбекской поэзии
(на материале стихотворений Эшкабиля Шукура и Абдували Кутбиддина) .51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Spisokopublikovannyxrabot
List of published works 55

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI**

MUXAMMADIYEV DADAXON ABDUXAMIDOVICH

**ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATIDA
METAFORIK TAFAKKUR TABIATI
(Eshqobil Shukur va Abduvali Qutbiddin she’rlari asosida)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2454 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.tai.uz manziliga hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

To'laganova Sanobar Panjiyevna
filologiya fanlari doktori

Rasmiy taqrizchilar:

Jabborov Nurboy Abdulhakimovich
filologiya fanlari doktori, professor

Afoqova Nodira Mahmudovna
Filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zR FA AlisherNavoiy nomidagi
Davlat adabiyot muzeyi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "20-dekabr" soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz tor ko'chasi, 5uy. Tel.: (71) 233-36-50; faks: (71) 233-71-44; e-mail: uztafi.@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining fundamental kutubxonasida tanishish mumkin (75 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:100100, Toshkent shahri, Ziyolilar ko'chasi, 13uy. Tel.: (71) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "5-dekabr" kuni tarqatildi.
(2024 yil "5-dekabr" .dagi 9 raqamli reyestr bayonnomasi).



B.To'xliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

R.Barakayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi,
filologiya fanlari nomzodi, professor

U.Hamdamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminarraisi,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida metaforani tadqiq qilish tizimi qadim zamonlarga borib taqaladi. Metafora lisoniy va badiiy-estetik hodisa sifatida kundalik soʻzlashuv vositasi boʻlishi bilan birga turli fanlar tizimida oʻrganilgan. XX asr oxirlariga kelib dunyoning turli nuqtalaridagi olimlar, asosan, faylasuflarning metaforaning paydo boʻlish, shakllanish, qoʻllanish sohalarini turli maʼno sathlarida oʻrganganini kuzatish mumkin. Metaforik tafakkurning adabiyotdagi, xususan, sheʼriyatdagi oʻrni uning poetik ahamiyati va badiiy-estetik hodisa ekanligi bilan belgilanadi. Ana shu jihatni ilmiy-nazariy tomondan oʻrganish bugungi adabiyotshunoslik fanining dolzarb masalasi hisoblanadi.

Dunyo adabiyotshunosligida badiiy-lisoniy, metaforik tafakkur va metaforaning leksik-semantik tarkibi, tuzilishi, sheʼr strukturasiidagi oʻrni, badiiy-estetik ahamiyati hanuz toʻliq ochilmagan nazariy muammolardan biri hisoblanadi. Turli xalqlar sheʼriyatidagi, jahon shoirlari ijodidagi har bitta oʻziga xoslik metaforik tafakkur qamrovida tadqiq etilganda ijodkor uslubi va individualigi yaqqol koʻzga tashlanadi. Shu jihatdan, metaforani tafakkur tarzi bilan bogʻlab oʻrganish uni anglash va anglatish xususiyatlarini ochish uchun eng kerakli jihat hisoblanadi.

Istiqloq davrida oʻzbek zamonaviy adabiyotida, xususan, anʼanaviy sheʼriyatda ham shakl va mazmun jihatdan yangilanishlar paydo boʻldi. His-tuygʻu yoki aytilmoqchi boʻlgan fikrni noanʼanaviy tarzda ifodalash, shuningdek, xalq ogʻzaki ijodi, mifik tafakkurga bogʻliq holda ifoda qilishning imkoniyatlari yanada kengaydi. Xalq qoʻshiqlari, laparlar, dostonlarda yashab kelayotgan barmoq sheʼr tizimi XX asr avvalida yangi koʻrinishda namoyon boʻldi. Choʻlpon, Fitrat, Usmon Nosir kabi shoirlar ijodi bilan mustahkamlangan bu vazn toʻasrning oxiriga qadar ham mazmun, ham shakl, ham ohang jihatdan shakllanib, sayqallandi. 70-80-yillarda esa oʻzbek sheʼriyatida keskin oʻzgarishlar namoyon boʻldi. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Matjon, Rauf Parfi kabi shoirlar sheʼriyatidan kuch olgan 70-yillar avlodi sheʼriyatga yangi nafas olib kirdi. Usmon Azim, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon, Muhammad Rahmon kabi davrning yirik shoirlari sheʼriyatni yangi bosqichga olib chiqdi, poetik tafakkurning yangi sarhadlarini kashf etdi. Ulardan keyingi, yaʼni Abduvali Qutbiddin, Eshqobil Shukur, Aziz Said, Bahrom Roʻzimuhammad, Halima Ahmedova kabi shoirlar avlodi ijodida esa metaforik tafakkur tabiatida yangilanishlar yuz berganini koʻrsatdi. Aynan shu jihatni, yaʼni sheʼriyatda metaforik tafakkur muammosini oʻrganish muayyan davr sheʼriyatining oʻziga xos tabiatini aniqlashda muhim oʻrin tutadi. Zero, “Oʻzbek ... zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda oʻrganish va targʻib qilish, koʻpqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bogʻliq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish katta ahamiyatga ega”¹ dir.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг «Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари» мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табриги // Халқсўзи. 2018 йил 8 август.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish to‘g‘risida”gi, 2021-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida metafora va metaforik tafakkur masalalari Arastu, Gegel, J.Lakoff, M.Jonson, M.Tyorner, N.Arutyunova, X.Gasset kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan¹. O‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida esa metafora masalasi A.Sharopov, N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, G.Qobuljonova, U.Qobulova, O.Karimov, D.Rustamova, D.Yunusova, N.Suyarova, G.Nasrullayeva, Sh.Maxmaraimova, N.Mirzayeva kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan².

¹ Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Адабиётвасанъат, 1980. – 152 б.; Гегель. Эстетика. Том II. – Москва: Искусство, 1969. – 326 с.; George Lakoff and Mark Johnson. Metaphors we live by. – Chicago: The university of Chicago press, 1980. – 243 p.; George Lakoff and Mark Turner. More than Cool Reason. – Chicago: The University of Chicago Press, 1989. – 237 p.; Mark Johnson. The Body in the Mind: The Bodily Basis of Meaning, Imagination, and Reason. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 272 p.; Mark Turner, Death is the Mother of Beauty: Mind, Metaphor, Criticism. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 217 p.; Теория метафоры: Сборник: Вступ. ст. исост. Н.Д.Арутюновой. — Москва: Прогресс, 1990. – 512 с.

² Шаропов А. Оламлар ичра оламлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. – 224 б.; Махмудов Н. Тил тилсим тадқиқи. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – 177 б.; Махмудов Н. Туйғулар талоши ёхуд сезгилар ҳамкорлиги манзаралари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2023.- № 43(4754); Худойберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.; Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2000. – 124 б.; Қобулова У. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (ўзбек халқ топишмоқлари мисолида): Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2007. – 121 б.; Каримов О. Абдулла Орипов шеърятда метафорик образлар тизими: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2012. – 140 б.; Рустамова Д. Метафорик эвфимизациянинг лингвокультурологик ва социопрагматик аспекти: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 53 б.; Юнусова Д. Шавкат Раҳмон шеърятда метафорани ҳосил қилувчи лексик-грамматик воситалар тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2022. – 52 б.; Суярова Н. “Белги” денотатив семали метафораларнинг таснифи, когнитив структураси ва лексикографик талқини: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2021. – 53 б.; Насруллаева Г. Антропоцентрик метафоранинг лисоний, когнитив ва лингвомаданий аспекти: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2019. – 52 б.; Махмараймова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи (номинатив аспект). Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2020. – 74 б.; Мирзаева Н. XX аср шеърятда метафорик образ муаммоси (Гарсиа Лорка ва Шавкат Раҳмон шеърятда мисолида). Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 132 б.

O'zbek adabiyotshunosligida Abduvali Qutbiddin, Eshqobil Shukur ijodi ayrim nazariy masalalarga misol sifatida qisman keltirilgan. Xususan, Abduvali Qutbiddin ijodi badiiyati, uning uslub imkoniyatlari G.Ernazarova, M.Davronova, D.Xursanov, M.Xolova, Z.Pardayevlarning dissertatsiyalarida qisman o'rganilgan¹. Eshqobil Shukur ijodi, shuningdek, shoirning o'zbek tilining rivoji yo'lidagi publitsistik va ilmiy ishlari esa I.Ernazarova, G.Oripovalarning ilmiy ishlarida muayyan mavzular doirasida tadqiq qilingan².

G.Ernazarova, M.Davronovalar Abduvali Qutbiddinning ayrim she'rlarini tasavvufona tuyg'ular, diniy-ma'rifiy ohanglar aspektida tahlil qilishgan. D.Xursanov o'zbek shoirlari ijodida badiiy zamon masalasini tadqiq qilishda Abduvali Qutbiddin she'rlaridan ham foydalangan. M.Xolova o'zbek modern she'riyat poetikasini o'rganish jarayonida Abduvali Qutbiddin she'rlariga murojaat qilib, an'anaviy ifodalarni zamonaviy ko'rinishda bera olganini aytadi. Z.Pardayev olam va odam dunyosini obrazlar, turli shakllar metamorfozasi vositasida tushuntirish jarayoni Abduvali Qutbiddin she'rlarida yana-da bo'rtibroq ko'rinishini ta'kidlaydi. I.Ernazarova shoir Eshqobil Shukurning so'z qo'llash mahoratini tilshunoslik yo'nalishidagi ilmiy ishida maxsus tadqiq obyekti sifatida olgan. G.Oripova she'riyatdagi ohangdorlik, musiqiylikni yuzaga keltiruvchi evfonik vositalar, ifodalar hamda ta'kidning badiiy-estetik funksiyalarini Eshqobil Shukur va boshqalar ijodi misolida ko'rsatgan. N.Umarova esa Eshqobil Shukur, Abduvali Qutbiddin mansub avlodni ozodlik g'oyalarini kuylash bilan birga, diniy e'tiqod mavzularini ham she'riy san'atlar yo'li bilan goh oshkor, goh yashirin tarzda ifoda etadigan shoirlar sifatida ko'rsatadi³.

Ko'rinadiki, Abduvali Qutbiddin ijodi, asosan, ayrim tadqiqotchilar tomonidan turli nazariy qarashlarga misol sifatida keltirilgan. Metafora tahlili va metaforik tafakkur tabiati misolida ilmiy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmagan. Eshqobil Shukur she'riyati esa monografik planda deyarli o'rganilmagan. She'riyatdagi metaforaning yangilanishi deganda faqatgina shakliy jihatdan o'zgarishlarni emas, xalqona ohang, tafakkurga yo'g'rilgan ruhiy kechinmalar, an'anaviy adabiyotning zamonaviy ko'rinishlarini ham tushunish lozim bo'ladi. Aynan mazkur masala hozirgacha adabiyotshunosligimiz tomonidan yetarlicha o'rganilmagan, e'tiboridan chetdagi mavzu edi. Mazkur tadqiqot yuqoridagi masalalarni monografik planda o'rganishga diqqat qaratilgani bilan ham dolzarb hisoblanadi.

¹ Ernazarova G. Hozirgi ўzbek she'riyatining meditatив tabiati. Филол. фан. д-ри (DsC) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 272 б.; Davronova M. Hozirgi ўzbek she'riyatida individual uslub poetikasi. Филол. фан. д-ри (DsC) ... дисс. автореф. – Самарканд, 2019. – 68 б.; Xursanov D. Hozirgi ўzbek she'riyatida хронотоп poetikasi. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарканд, 2020. – 49 б.; Холова М. Ўзбек модерн she'riyat poetikasi. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарканд, 2018. – 51 б.; Пардаев З. Истиклол даври she'riyatida халқона пафоснинг янгиланиши. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 148 б.

² Ernazarova I. Муаллиф сўз ижодкорлигининг лисоний-когнитив таҳлили (Эшқобил Шукур ижоди мисолида) Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарканд, 2022. – 50 б.; Оripova Г. Мустикаллик даври ўзбек she'riyatining го'явий-эстетик ва бадий хусусиятлари. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2019. – 60 б.

³ Umarova N. Янги ўзбек she'riyatida лирик тафаккур ва миллий этиканинг бадий уйғунлиги. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2022. – 144 б.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 100 jildlik "O'zbek adabiyoti xazinasidan" kitoblar turkumini nashrga tayyorlash" ilmiy-tadqiqot rejasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy o'zbek she'riyatida metaforik tafakkur va metaforik ifoda dialektikasi hamda metaforik tafakkurning individual uslublarda voqelanishi muammosini E.Shukur va A.Qutbiddin she'riyati misolida ilmiy tadqiqot etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

metafora va metaforik tafakkur tushunchalarining kelib chiqishi tarixi, badiiy asoslari, ilmiy-nazariy xususiyatlarini yoritish;

metafora va metaforik tafakkurning o'zbek she'riyatida izchil tarzda shakllanib, rivojlanib kelgani, metaforik tafakkurga xos xususiyatlarning milliy zaminga ega ekanini davriy va badiiy-tarixiy omillaridan kelib chiqqan holda asoslash;

Abduvali Qutbiddin va Eshqobil Shukur she'riyatidagi o'ziga xos metaforik tafakkur tarzi, she'r-metafora va individual metaforaga oid jihatlarni ochib berish;

tadqiqot obyekti sifatida olingan she'rlardagi yangi shakl va mazmun izlanishlari, individual obrazlarning metaforik jihatdan aks ettirilishini ilmiy asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Abduvali Qutbiddin va Eshqobil Shukurning she'rlari, shuningdek, nazariy fikrlar zaruratiga qarab hamda davr ruhiyatini ochib berish, qiyoslash zarurati bilan boshqa shoirlar ijodiga ham murojaat qilingan.

Tadqiqotning predmetini Abduvali Qutbiddin va Eshqobil Shukur she'riyatidagi an'anaviy va individual metaforalar, metaforik tafakkur tarzidagi she'rlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur tadqiqotda struktural, analitik, qiyosiy-tahliliy usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

zamonaviy she'riyatda metaforik tafakkur tushunchasi ilmiy-nazariy jihatdan asoslanib, metaforik tafakkurning ijodkor shuuri va ruhiyatidagi mutanosibligi isbotlangan;

muayyan bir she'rning strukturasini tashkil qilayotgan "faromush bog'", "o'kinch tilak", "qizg'aldoq – ona", "olovli quchoq", "dunyoni qaritish" "yetim qasos", "dard tutgan qabr", "besh yillik o'lim" kabi metaforalar ma'no va tuyg'uning uyg'unligini ta'minlab, Abduvali Qutbiddin va Eshqobil Shukur ijodida individual hodisa bo'lishi asoslangan;

shoirning turkum she'rlarida takror qo'llaniladigan "Osima" obrazining individual metaforaga aylanish jarayoni Abduvali Qutbiddin she'rlari misolida dalillangan;

Eshqobil Shukurning muayyan bir turkumga mansub "Ikki dunyo oralig'idagi qofiyasiz tushlar", "Qaldirg'ochning ko'zyoshlari", "To'qqizinchi fevral", "Anjuman" "Ko'ngil qushlari", "Mamatrayim baxshi" kabi she'rlari ifoda tarzi,

poetic imkoniyatlari va mazmun-mohiyatiga ko'ra alohida metafora ekanligi isbotlanib, "she'r-metafora" tushunchasi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

metaforik tafakkur tushunchasini badiiy va ilmiy-nazariy tushuncha, lirikaga xos poetik hodisa sifatida yoritishda va adabiyotshunoslikda yangi nazariy tamoyillarning maydonga kelishida mazkur tadqiqot muhim amaliy ahamiyat kasb etadi;

metaforik tafakkurning badiiy tafakkur, zamonaviy poetika, o'zbek zamonaviy she'riyatidagi faol ijtimoiy hodisalar bilan bog'liqligi, jahoniy poetik hodisaning milliy zaminga egaligi ilmiy tadqiqot va ilmiy o'quv jarayoni uchun xizmat qiladi;

zamonaviy o'zbek adabiyoti, xususan, Abduvali Qutbiddin va Eshqobil Shukur she'riyatini, individual metafora, she'r-metafora tushunchalarini teran anglash uchun nazariy manba vazifasini bajaradi;

Abduvali Qutbiddin va Eshqobil Shukur ijodida aks etgan o'ziga xosliklarning metaforik tafakkur tarzida talqin etilishi, yangi inson qiyofasining metaforik tasvirlari, zamonaviy o'zbek she'riyatida Sharq adabiyotiga xos ijtimoiy-falsafiy, diniy-ma'rifiy mavzularning tahlil etilib, ilmiy xulosalar chiqarilishi yosh avlod ma'naviyati, ilmiy va badiiy tafakkurining takomil topishida faol amaliy mohiyatga ega.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda keltirilgan yondashuv va metodlar, jahon va o'zbek adabiyotshunosligi yutuqlari asosida nazariy hamda amaliy umumlashmalar chiqarilganligi; struktural, analitik, qiyosiy-tahliliy tahlil usullarining bevosita milliy she'riyat namunalari negizida yangilangani, yangi qirralari ochib berilgani; olingan natijalarning nufuzli ilmiy tashkilotlar, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy o'zbek she'riyatida metaforik tafakkur muammosi Eshqobil Shukur va Abduvali Qutbiddin she'rlari misolida ilmiy-nazariy yoritilgani, tadqiqotning amaliy ahamiyati keltirilgan nazariy fikr-mulohazalardan o'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligi tarixini o'rganishda, "Adabiyot nazariyasi", "Adabiyotshunoslikka kirish", "Hozirgi o'zbek adabiyoti", "Badiiy tahlil asoslari" kabi fanlarini o'qitishda, shu fanlar bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalarini yaratishda tayanch manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ushbu dissertatsiya ishi materiallaridan adabiyot nazariyasi, badiiy tahlil asoslari, zamonaviy o'zbek adabiyoti bo'yicha maxsus kurs va maxsus seminarlar olib borishda, tayanch doktorantlar, magistrantlar, bakalavr bosqichi talabalarining bilim saviyalarini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Zamonaviy o'zbek she'riyatida metaforik tafakkur tabiati" (Eshqobil Shukur va Abduvali Qutbiddin she'rlari asosida) mavzusidagi tadqiqot bo'yicha olingan natijalardan:

zamonaviy she'riyatda metaforik tafakkur tushunchasi ilmiy-nazariy jihatdan asoslanib, metaforik tafakkurning ijodkor shuuri va ruhiyatidagi mutanosibligi

isbotlanganiga doir ilmiy xulosalardan Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan OT-F1-030 “O‘zbek adabiyoti durdonalari 100 jildligini nashrga tayyorlash” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihada foydalanilgan (Fanlar akademiyasining 2024-yil 2-maydagi 3/1255-981-son ma’lumotnomasi). Natijada zamonaviy o‘zbek she’riyatidagi yangilanishlar, adabiyotshunoslikdagi mavjud ilmiy mulohazalar metafora va metaforik tafakkur tushunchalari bilan to‘ldirish, yangi davr she’riyati borasidagi nazariy qarashlar bilan yanada boyitilgan;

muayyan bir she’rning strukturasi tashkil qilayotgan “faromush bog‘”, “o‘kinch tilak”, “qizg‘aldoq – ona”, “olovli quchoq”, “dunyoni qaritish” “yetim qasos”, “dard tutgan qabr”, “besh yillik o‘lim” kabi metaforalar ma’no va tuyg‘uning uyg‘unligini ta’minlab, Abduvali Qutbiddin va Eshqobil Shukur ijodida individual hodisa bo‘lishi asoslanganiga oid nazariy xulosalar va malakaviy tavsiyalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan OT-F1-030 “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyani (7 jild) chop etish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 29-yanvardagi 04/1-222-son ma’lumotnomasi). Natijada adabiyotshunoslikda mavjud bo‘lgan metafora borasidagi nazariy qarashlarning muayyan asoslar bilan to‘ldirilishiga xizmat qilgan;

shoirning turkum she’rlarida takror qo‘llaniladigan “Osima” obrazining individual metaforaga aylanish jarayoni Abduvali Qutbiddin she’rlari misolida dalillangani haqidagi ilmiy natija va xulosalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining She’riyat kengashi hisobot yig‘ilishlarida, yosh ijodkorlarning “Onajonim she’riyat” to‘garagi faoliyatida, mahorat darslarida foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 26-yanvardagi 01-03/114-son ma’lumotnomasi). Bu orqali yosh ijodkorlarga adabiyot nazariyasi, adabiy tahlil mahoratidan bilim va ko‘nikmalar berilgan;

Eshqobil Shukurning muayyan bir turkumga mansub “Ikki dunyo oralig‘idagi qofiyasiz tushlar”, “Qaldirg‘ochning ko‘zyoshlari”, “To‘qqizinchi fevral”, “Anjuman” “Ko‘ngil qushlari”, “Mamatrayim baxshi” kabi she’rlari ifoda tarzi, poetic imkoniyatlari va mazmun-mohiyatiga ko‘ra alohida metafora ekanligi isbotlanib, “she’r-metafora” tushunchasi ochib berilgani borasidagi natija va xulosalaridan “Madaniyat va ma’rifat” telekanalining “Til millat ko‘zguisi” ko‘rsatuvi hamda “Mahalla” telekanalining “Ziyo darg‘alari” ko‘rsatuvi senariylarini tayyorlashda foydalanilgan (“Madaniyat va ma’rifat” telekanalining 2024-yil 23-yanvardagi 02-16/16-son ma’lumotnomasi, “Mahalla” telekanalining 2024-yil 25-yanvardagi 01-12-77-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuvlarda berilgan ilmiy xulosalar tomoshabinlarning metafora va metaforik tafakkur bo‘yicha bilimlari oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 7 ta xalqaro ilmiy-nazariy (jumladan, 1 ta chet elda) anjumanlarda ilmiy jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 6 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan, 5 ta respublika hamda 2 ta xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, oltita fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat bo’lib, umumiy hajmi 137sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning o’rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishiga mosligi ko’rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish va dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Metaforik tafakkur tabiatining o’ziga xosligi**” deb nomlangan birinchi bobi ikki fasldan tashkil topgan. Birinchi faslda “**She’riyatda badiiy idrokning tadrijiy, ijtimoiy-falsafiy va badiiy estetik asoslari**”masalasi tadqiq qilingan. O‘zbek adabiyotida bir necha asr davom etgan mumtoz she’riyat an’analari XX asr boshiga kelib yangicha ko’rinish oldi. Asr boshlaridagi ijod namunalarida aruz vaznida yozilgan g‘azallar o‘rnini keng qamrovda barmoq she’r tizimi namunalari egallab bordi. Asr oxiriga qadar bu tizim ham yangilandi, sayqallandi, takomillashdi. Ulug‘bek Hamdamov mazkur evrilishlar haqida gapirib, 90-, 2000-yillarda shakllangan yo’nalishning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida “voqeabandlikdan, tasvirdan, bayondan deyarli voz kechish va buning o‘rniga metafora va detallarga urg‘u berish”ni ko’rsatadi¹. 70-80-yillarda adabiyotga katta oqim bo’lib kirib kelgan U.Azim, Sh.Rahmon, X.Davron mansub avlod garchi an’anaviylik va vorisiylik tamoyillariga daxl qilmagan bo’lsalar-da, ularning uslubi 60-yillar avlodi bo’lmish E.Vohidov, A.Oripov, R.Parfi, H.Xudoyberdiyeva, O.Matjon kabi shoirlarning so‘z, tashbeh, metafora qo‘llash uslubidan farq qilgani ayon. Undan keyingi avlod Eshqobil Shukur, Abduvali Qutbiddin, Aziz Said, Halima Ahmedova, Zebo Mirzo kabi shoirlarning uslub va qarashlari alohida o‘ziga xoslikni namoyon qiladi.

Xususan, Eshqobil Shukur ijodida davriy yangilanishlarning o‘ziga xos ifodasi aks etdi. Shakl va mazmun jihatdan uning she’rlaridagi metaforalar an’anaviylikka yaqin, biroq yondashuv yo’sini yangichaligi bilan shoir uslubini belgilaydi. She’riyatda shakliy yangiliklar qilgan davrdosh shoirlardan farqli ravishda Eshqobil Shukur dashtning kengligi, qishloqning toza nafasi, an’ana va urf-odatlardagi xalqona ohanglari bilan Vatanni sevishni faqat o‘zigagina xos

¹ Хамдам У. Янгилашиш эҳтиёжи. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 90.

bo'lgan suratda namoyon qildi. Shoir ijodini ijtimoiylashgan ham, liriklashgan deb ham aytib bo'lmaydi. Uning o'zlik, vatanparvarlik, erk mavzusidagi she'rlarida ham lirik bo'yoqdorlik sezilsa, muhabbat, sog'inch, ishq iztirobi kuylangan she'rlarida xalqonalik, el, yurt bilan bog'liq jihatlar ko'rinib turadi.

Abduvali Qutbiddin ijodida esa ruhning holatlari chiziladi, manzara hosil bo'ladi. Shoir metaforadan foydalanishda, ohorli tashbehlarni qo'llashda zamonning tebranishlaridan kuch olgan, ta'sirlangan. O'sha davr she'riyatida diniy-ma'rifiy mavzuga, tasavvufga murojaat qilish birmuncha ortib bordi. Abduvali Qutbiddin she'rlarida tasavvufiy ohanglar ko'p bo'lsa-da, uni butunlay tasavvuf she'riyati yo'lga o'tib ketgan, deb bo'lmaydi. Ushbu yo'nalishdagi shoirlar ijodidan Abduvali Qutbiddin she'rlari ham shakl, ham mazmun jihatdan zamonaviylik va, o'z navbatida, mumtoz adabiyot an'analarini o'zida mujassamlashtirgani bilan ajralib turadi.

Davr inson tafakkurining yangilanishiga ta'sir qilar ekan, uning metaforik tafakkur tarziga ham ta'sir qilishi tabiiy. Bu hol XX asr oxiri, XXI asr boshlaridagi o'zbek she'riyatida yana-da yaqqol ko'zga tashlanadi. Tadqiqotda mazkur hodisani metaforik tafakkur tarzi doirasida alohida tadqiq etish maqsadga muvofiq ekanligi keltirildi. **Metafora tushunchasi faqatgina she'r yoki, umuman, adabiyot bilan cheklanmaydi.** Falsafa va tilshunoslikda u atroflicha o'rganilgan. Nemis faylasufi Georg Vilgelm Fridrix Gegel o'zining "Estetika" asarida metaforaning turlari, qo'llanish doirasini ko'rsatib beradi. Metaforaning badiiy-estetik funksiyalarini, metaforik nutqdagi kechinma tabiati va dinamikasini Firdavsiy, Vergiliy, Shekspir, Geyne, Shiller kabi ijodkorlar asarlari misolida ochib beradi¹. Jorj Lakoff va Mark Jonsonning "Biz yashayotgan metafora" asari bu yo'nalishdagi noyob asarlardan². Jorj Lakoffni hozirgi olimlar Aristoteldan keyin metaforani chuqur o'rgangan olim sifatida e'tirof etishadi. Lakoff nazariyasining o'ziga xosligi shundaki, u metaforani kognitiv semantikada ko'rib chiqadi. **U metaforaga, avvalo, majoziy vosita emas, tabiiy jarayon, kundalik hodisa sifatida qaraydi.** Shuningdek, metaforani faqatgina lingvistik emas, universal hodisa sifatida o'rganadi.

Tafakkur – falsafa fanining o'rganilish obyekti. Metaforik tafakkurga falsafiy tomondan qaralganda ish biroz murakkablik kasb etishi tabiiy. Maqsadimiz she'riyatdagi metaforik tafakkur tabiatini o'rganish ekan, falsafadagi tafakkur haqida eng kamida boshlang'ich taassurotlarga ega bo'lishimiz lozim. Umuman olganda, barcha gumanitar fanlarning o'rganish obyekti inson ekan, har bir fan uni o'z prinsiplari doirasida o'rganadi. Xuddi shu qatorda adabiyot, xususan, she'riyat, uning poetik qiyofasini tadqiq etadi. U.Hamdammov: "Har qanday yaxshi she'r markazida o'zining quvonch va tashvishi, orzu va armoni bilan inson turadi"³, – deganida aynan inson his-tuyg'u va kechinmalarining poetik holatini nazarda tutadi.

Aksariyat she'rda doim metafora bo'lishining asosiy sababi aytilmoqchi bo'lgan fikr yoki tasvirni o'quvchining tasavvur olami orqali teranroq singdirish,

¹ Гегель. Эстетика. Том II. – Москва: Искусство, 1969. – Б. 112-120.

² George Lakoff and Mark Johnson. Metaphors we live by. The University of Chicago press, 1980. – 243 p..

³ Хамдамов У. Бадий тафаккур тадрижи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. – Б. 25.

ta'sir doirasini kengaytirishdir. Bunda inson tafakkurining murakkab holatlari metaforik ma'noga ega lisoniy birikmalar orqali sodda va tushunarli holatga keladi. Abdurauf Fitrat o'xshatish va istiora (metafora)ni bir-biridan quyidagicha farqlaydi: "Ikki so'zning har birini o'z ma'nosida qoldirib, bir-birlariga o'xshatilib aytilsa, o'xshatish bo'ladir. Bir so'z o'zining chin ma'nosidan olinib, shunga o'xshagan boshqa bir ma'noda ishlatilsa, istiora bo'ladir"¹. Adabiyotshunos Yoqubjon Is'hoqov esa o'z xususiyatiga ko'ra istiora ikkiga bo'linishini aytadi: 1. Ochiq istiora (yoki istiorai bit-tasreh); 2. Yopiq istiora (yoki istiorai izofiy). Bunda ularning bir-biridan farqi sifatida o'xshatilyotgan narsa tilga olinmay, faqat istioralanuvchi zikr qilinishi hamda istioralanuvchi zikr ham etilmay, uning biror sifati, xulq-atvori, uzv-a'zosi izofat sifatida keltirilishi ko'rsatiladi². Zamonaviy adabiyotdagi metafora hodisasini ham xuddi shunday ikki guruhga (ochiq va yopiq metaforalarga) ajratadigan bo'lsak, bugungi she'riyatda yopiq metaforalar kamdankam holatda qo'llanilishini ko'rish mumkin.

Bobning ikkinchi faslida **"Metaforik tafakkur adabiy-estetik hodisa sifatida"** o'rganilib, avvalo metafora va metaforik tafakkur tushunchalarning tafovut yoki bir xillik tomonlari aniqlab olindi. Professor Jelal Demir va tadqiqotchi O'zge Karakash Yeldirim (Turkiya) bu ikki tushunchani bir vazifaning ifodalovchisi o'laroq ko'rsatadi³. Obidjon Karimov she'riyatda metaforik tafakkur deganda butun she'r davomidagi metaforalarning uzviy bog'langan holda kontekstda badiiy obrazni tashkil etishini nazarda tutadi⁴. Dilshod Xursanov va Maftuna Xolovalar o'zlarining tadqiqot ishlarida dissertatsiyasining bitta faslini aynan metaforik tafakkur bilan bog'laydi⁵. Biroq mazkur ikki ilmiy ishda ham metaforik tafakkurning nazariy ta'rifi, mohiyati to'la ochib berilmagan va bunga ehtiyoj ham sezilmagan. Maftuna Xolova "...boshlang'ich metafora o'zining yasama shingillari bilan kengaya borib, jamiki matnni o'z tarkibiga qo'shib oladi"⁶, – deydi va ushbu hodisani esa shartli ravishda "metaforik tafakkur she'riyati", deya ataydi. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov metanimiya haqida gapira turib "metaforik tafakkur" istilohini ishlatadi: "Badiiy adabiyotda, ayniqsa, metaforik tafakkur yetakchilik qilayotgan zamonaviy adabiyotda metonimiya metaforaga nisbatan kamroq uchraydi, o'zining estetik funksiyadorligi jihatidan ham u metaforadan quyiroq turadi"⁷. Olim bu yerda "metaforik tafakkur yetakchilik qilayotgan zamonaviy adabiyot" deganda davr she'riyatidagi tafakkur evrilishlari, she'riyatning tadrijiy rivojidadagi ayni holatni nazarda

¹ Фитрат А. Адабиёт қоидалари. (Нашрга тай.: Ҳ.Болтабоев) – Тошкент: Ўқитувчи. 1995. – Б. 68.

² Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2014. – Б. 50-51.

³ Prof. Dr Celal Demir ve Arş. Gör. Özge Karakaş Yıldırım. Türkçede Metaforlar ve Metaforik Anlatımlar/Afyon Kocatepe Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi. Cilt: 21. Sayı: 4, Aralık 2019. – S. 1085-1096 .

⁴ Каримов О. Абдулла Орипов шеърлятида метафорик образлар тизими: Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 2012. – Б. 92.

⁵ Хурсанов Д. Ҳозирги ўзбек шеърлятида хронотоп поэтикаси. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD)... дисс. автореф. Самарқанд, 2020. – 49 б.; Холова М. Ўзбек модерн шеърляти поэтикаси. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD)... дисс. автореф. Самарқанд, 2018. – 51 б.

⁶ Холова М. Модерн шеърда метафорик тафаккур тарзи // Хорижий филология. Самарқанд, 2020. - № 1(74). – Б. 35.

⁷ Куронов Д. Адабиётшунослика кириш. – Тошкент: Халқ мероси, 2004. – Б. 103.

tutadi. Ko‘rinadiki, o‘zbek adabiyotshunosligida “metaforik tafakkur” tushunchasi ba’zi bir holatlar, davr yoki jarayonni ifodalash uchungina ishlatilgan.

Metaforik tafakkur dunyoni anglashning o‘ziga xos yo‘isini bo‘lib, ijodkorning olamga munosabati, idrok ko‘lami, voqelikni qabul qilish tarzi va uni ifodalashda muallif anglamining jamlanmasi demakdir. Mazkur hodisa poetik tafakkurning tarkibiy qismi sanalib, o‘zida lisoniy, mantiqiy, badiiy tafakkurning uyg‘unligini jamlaydi. Metaforik tafakkurga ko‘ra, voqelikni tasvirlashda yoki fikr ifodasida aqliy va zavqiy sezimlar bir butun holda o‘zaro birikib yangi ma’no beradi. Ongimizda mavjud bo‘lgan tushunchaga yangi ma’no yuklanishi, yangi mazmun kasb etishi metaforik tafakkur tabiatining yetakchi xususiyati sanaladi. Metaforik tafakkur tabiatiga xos quyidagi xususiyatlarni ta’kidlab o‘tishni istardik:

a) ifodada majozga tayanish; b) ma’no yaqinligi orasidagi o‘xshashlik; v) tuyg‘uning mantiqiy ifodaga bog‘lanishi; g) tuyg‘u va fikr uyg‘unligiga asoslanish; d) lisoniy badiiy tafakkurning o‘zaro hamohangligi yoki sintezi; e) aqliy tafakkurning badiiyat bilan uzviyligi; j) she’r orqali fikr yuritish; z) ifodada qisqa, lo‘nda va yaxlitlikka erishuv.

Metafora dastlab o‘quv darsliklarida tilshunoslikning bir vositasi sifatida o‘rgatilsa, adabiyotda biroz murakkablashadi, to‘ldiriladi, to‘yintiriladi. So‘zlashuvda metafora tabiiy jarayonning mahsuli sifatida idrok etiladi. Masalan, “*Bu yo‘l Zarafshonga boradimi?*”, “*Kun ham yonib ketdi-ya?*” degan gaplardagi metafora badiiy bo‘yoqdorlikni talab qilmasa-da, mazmunning to‘kis anglanishiga xizmat qiladi. Abduvali Qutbiddinning

Hibs etilganman o‘zimga o‘zim...¹

satri haqida esa bu fikrni aytib bo‘lmaydi. Ruh va vujudning zidligi ko‘rsatilayotgan ushbu holatda hibs etilmoq tushunchasi shunchaki mazmunni to‘ldirish vositasi emas. Bir qaraganda, ruhning vujudga, inson tanasiga “qamalgani” idrok etilishi tabiiy tuyiladi. Ammo turli ko‘rinishdagi nafs tushunchasi ham borki, u ham kishining axloqiga hibs etiladi. Poetik nutqdagi, ya’ni mana shu birgina satrdagi metaforik holat badiiy obraz sifatida gavdalanyapti. So‘zlashuvdagi metaforalar esa (“*Bu yo‘l Zarafshonga boradimi?*”, “*Kun ham yonib ketdi-ya?*”) mazmunning tushunarliroq va soddaroq bo‘lishini ta’minlayapti xolos.

Metaforik tafakkurni dastlab shartli ravishda aqliy jarayon deb oladigan bo‘lsak, uni tasvirlanayotgan obyektlar o‘rtasidagi qiyoslash, taqqoslash holati sifatida tasavvur qilamiz. Ongning o‘xshashlikni izlash jarayonini ham metaforik tafakkur deb berish mumkin. Umuman olganda, o‘rtada deyarli farq yo‘q. Agar metaforik tafakkur bu – aqliy jarayon bo‘lsa, u tabiiy ravishda mantiqiy fikrlashni taqozo qiladi. Bu esa ijod jarayoniga salbiy ta’sir qilishi, his qilish tushunchasidan uzoqlashtirib qo‘yishi mumkin. Biroq she’rga faqatgina hissiy jarayon deb qaralmaydi. Tevarak-atrofdan, tabiatdan, kitoblardan va hayotdan olgan bilim-ko‘nikmalar tuyg‘ular orqali she’rga ko‘chishini hisobga olish kerak. Bundan kelib

¹ Кутбиддин А. Бахтли йил: шеърлар. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. – Б. 47.

chiqadiki, tafakkur tushunchasi singari metaforik tafakkur ham faqatgina aqliy jarayon emas. Bunda aqlning ham, hisning ham ulushi yetarli.

Aslida shoir dunyoni qanday ko‘radi? Qanday idrok etadi? Qanday ifoda qiladi? Bu uch jihat, bir qaraganda, ayro mazmunni tashkil qiladi. Ana shu ayroliklarni birlashtirganda umumiy yaxlitlik kelib chiqadi. Aytganimizdek, bunda tasvirning o‘zi, metaforani tasvir sifatida berishgina yetarli emas. Metaforaning tafakkur tarzidagi aksi ana shu jarayonda aniqroq ko‘rinadi. Bu yerda metafora va metaforik tafakkur tushunchalari o‘rtasidagi tafovut sezila boshlaydi.

Shunday qilib, she‘r orqali fikr yuritish jarayoni, o‘z navbatida, metaforik tafakkur tabiatini hosil qiladi. She‘riyatda metafora badiiy voqelik, poetik hodisa sanalsa, metaforik tafakkurda esa voqelik yoki hodisa emas, ma‘lum bir holat tushuniladi, u she‘rning yana-da jozibali va ta‘sirchan bo‘lishini ta‘minlaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida muammo **“She‘r semantik strukturasi metaforaning o‘rni”** tarzida belgilangan. Bobning birinchi fasli **“Poetik metafora – tuyg‘u va idrok mutanosibli”** deb nomlanib, metaforaning she‘r ruhi va strukturasi ahamiyati ochib berilgan. Metafora tushunish va tushuntirishni osonlashtirishning eng ixcham, aniqva lo‘nda ifoda tarzi sifatida muhim o‘rin tutadi. Deylik, keng ko‘lamdagi tasavvurlarni so‘z orqali ifodalashda metafora ularni siqib, murakkab va mavhum hodisalarni aniq ifodalash orqali tasvirlashni osonlashtiradi. Abduvali Qutbiddinning “Qasam” she‘ridagi tasvirga e‘tibor qaratamiz:

*Faromush bog‘larda sollanib mahzun,
Zarrin sarpolarida davlati fuzun,
Qalbimga ataydi non hamda tuzin,
Yo jonim muhabbat,
Sim-sim-ye, sim-sim,
Mabodo aldasam, qo‘llarim sinsin¹.*

Muhabbatni kuylayotgan shoirlar aksariyat holatlarda mahzun tasvirlarni ifodalashga harakat qiladi. Bu yerdagi “faromush bog‘lar” – o‘quvchini aynan shu holatga olib kiradigan metafora. Bog‘lar faromush bo‘lishining o‘ziyoq voqelikning metaforik holatini ko‘rsatadi. Yorning mahzunligi ham ana shu bog‘larning faromushligidan. Ammo nega “sollanib”? Faqatgina sollanish emas, “zarrin sarpolar” bilan birga “davlati fuzun”lik ham bor. Shunchalik fuzun, ziyoda davlat bilan, zarrin, qimmatbaho sarpolar bilan sollanib kelayotgan yorning mahzun holini anglashga ishtiyoq uyg‘onadi. Nega u faromush bog‘larda kezinyapti? Biz o‘rgangan ertaklar-u dostonlarda, she‘rlar-u g‘azallarda kibr bilan yurib ketayotgan go‘zalga, shunga monand go‘zal bog‘-u rog‘lar, xushchaqchaq chog‘lar tasviri she‘rda boshqacharoq mahzun holatni ifoda qilib kelyapti. Shoir ana‘naviy tasvir yo‘sinidan emas, qahramonning lahzalik holatidagi ruhiyatini ochiqlashga harakat qiladi. Demakki, shoirning ruhida bo‘lgan mahzunlik “davlati fuzun, mol-dunyosi haddan ziyoda” bo‘lgan go‘zalda ham bordek. Ana shu go‘zal “non hamda tuzin” shoirning qalbiga atayapti. Nega aynan qalbiga? Yoki

¹ Кутбиддин А. Найсон. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б. 26.

boshqacharoq savol qo'ysa bo'ladi: Nega shoirning qalbiga muhabbat, e'tibor, g'amxo'rlik, sadoqat bermasdan, atay non ham tuz atayapti? Balki, muhabbat ham, sadoqat ham ana shu "non-tuz"dadir? Xalqimizda "tuz-nasiba" degan tushuncha bor. Bu insonga belgilangan rizqini bildiradi. Agar she'rdagi "non-tuz"ni ham shu ma'noda deb oladigan bo'lsak, shoirning qalbiga atalgan nasibani, ya'ni muhabbatni ham, sadoqatni ham, vafoni ham yor "atamoqda", bermoqda. Demakki, ushbu satrlardagi "sollanish", "zarrin sarpo" va "davlati fuzun"lik ham biz to'g'ridanto'g'ri tushunadigan ma'noda kelmayapti. Bu jumlar mazmun va ifoda tarziga muvofiq metafora sanaladi. Ya'ni shoirning qalbiga taqdir nasibasini ataydigan go'zalning boyligi dunyoviy boylik emas. Ishqdan, vafodan "davlati fuzunlik" – bu.

She'r davomida "*o'kinch tilaklar*", "*sevgining nomidan yoziladigan tilxat*", "*qizg'aldoq – ona*", "*ortimdagi Badaxshon*", "*behamyon, beshon Badaxshon*" kabi metaforik holatlar ham borki, ularning har birida shoirning ruhiyati yorqinroq ko'rinib boraveradi. Oddiy so'zlashuvda bu holatlarni ifodalash birmuncha murakkab va ko'p tafsilot (so'z, tasvir, bayon)ni talab qiladi. She'rning so'nggi bandi:

*So'nggi dam o'zim-la o'chakishsam, hay,
Sohir ko'zlarindan talab etsam may,
Evoh, kekirdagim kesib etsam nay,
Puflasam, kuy yonsa,
Sim-sim-ye, sim-sim,
Mabodo aldasam, qo'llarim sinsin¹.*

O'zi bilan o'zi kelisha olmayotgan, o'ziga o'zi o'chakishib (ziddiyatga borib) turgan shoir eng so'nggi damda, oxirgi lahzada, eng so'nggi diydorda ma'shuqaning ko'zlaridan may talab qilyapti. Xo'sh, bu qanday anglashiladi? Mumtoz adabiyotda ma'shuqaning lablaridan, go'zal suhbat ilinjida may so'rash tarzi bor. Unda ham "talab etish" emas, "so'rash". Nega bu yerda shoir ma'shuqaning ko'zlaridan may talab etyapti. Talqinni turlicha ifodalash mumkin: a) ma'shuqaning ko'zyoshlari nazarda tutilyapti; b) ko'z nuri, nigohlarini shoirdan uzmaslik holati; v) "ko'z kosasiga mehr-muhabbatni jamlab, may kabi tutsam", – degan ta'kid; g) ko'z kosasi, ya'ni jom. Bilamizki, tasavvuf she'riyatida jom – ishqqa to'ldirilgan jom timsollari yor vasfidan bahramand bo'lish ma'nosida ko'p qo'llaniladi. May to'ldirilgan jomda yorning yuzini ko'rish bu – Ollohga bo'lgan ishqqa to'la yurak bilan Unga yetishish istagidir; d) Ma'shuqaning nazarini talab qilish (to'g'rirog'i, tilash) nazarda tutilyapti. Shoirning nuqtayi nazari va har bir o'quvchi uni o'z ruhiyatiga, saviyasi va didiga mos qabul qilishini ham esdan chiqarmaslik lozim. Demak, hissiy xulosa ham mutlaq emas.

Shoirning o'z kekirdagini kesib "*nay etishi*", nay yasashi holati esa shakl jihatdan ham, mazmun jihatdan ham murakkab metaforani hosil qiladi. Kekirdakdan olinadigan nafasni Ishq havosidan to'yinishga qiyoslaydigan bo'lsak, aynan bu Ishqdan xabar beradigan mujda – "kuy yonishi" ham tabiiydir.

¹ Кутбиддин А. Найсон. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б. 26.

Muhabbat havosidan to‘yingan nay Ishq haqida kuylaydi. Endi ana shu tasvirni metaforasiz, keng holatda tasvirlab ko‘ramiz:

Eng so‘nggi damda, senga yetishish yetishmaslik mahol bo‘lib turgan pallada o‘zim bilan o‘zim kelisholmay, ziddiyatga borib, o‘chakishib tursam, / Ko‘zlarining nuri, menga qaratilgan nigohlaring may bo‘lsa-yu, men ana shu mayni istasam, / So‘ngra o‘zinning kekirdagimni kessam va undan nay yasasam, keyin esa o‘sha nayni puflaganimda kuy taralsa... Metaforasiz, asl mazmun shunday. Ko‘rinadiki, oxirgi satrlar mantiqqa tamomanzid. O‘z kekirdagimni kesib yasagan nayni o‘zim (!) puflasam. Real mazmun umuman ishonchli emas. Bundan kelib chiqadiki, voqelikni metaforalar yordamida qisqa va lo‘nda, shu bilan birga, yana-da mazmunli tarzda tushuntirish va tushunish mumkin.

Eshqobil Shukurning “Nomukammallik” she‘ridan:

*Chorlading...
Ovozsiz oqqanda yo‘llar,
Chorlading – hilpirab
Bayroqqa aylandi qo‘llar¹.*

She‘rni o‘qir ekanmiz, tasavvurimizdagi uzun yo‘lni sokingina oqayotgan tekis daryoga qiyoslaymiz. Tinch, osoyishta va go‘yoki tuganmas daryo. Mana shu joyda metaforik holat yuzaga keladi. Yo‘l suv o‘zani(ariq, anhor, daryo)ga o‘xshatilyapti. “*Oqqan yo‘l*” – metafora. “*Qo‘lning bayroqqa aylanishi*” niesa real holat emas, shartli ravishda taslimlik belgisi, ma‘nosida qabul qilamiz. Bu yerda rozilik belgisi bo‘lishi mumkin. Lekin har holda “bayroq ko‘tarib chaqirish” degan mazmun yo‘qligi aniqroq. She‘rda, shuningdek, “*qarg‘ishlarning shamollari*”, “*nafratning is bosgan gullari*”, “*qora shamol bilan quvlash*”, “*kun va tunning ozib ketishi*”, “*ruhning manfaati*” kabi ko‘plab metaforik holatlar ham borki, ularning aksariyatini she‘rning butun holatida (kontekstda) tushunish, his qilish osonroq. Metaforaning o‘zini kontekstdan “yulib olib” o‘qiganimizda esa ma‘nosiz so‘z birikmalari kabi taassurot qoldiradi.

Metaforaning she‘r strukturasiidagi o‘rnini aniqlashda bir qancha xususiyatlarni yodda tutish lozim bo‘ladi. Shunday qilib, metafora quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Metafora – tafakkur bilan bog‘liq shakl hodisasi;

Metafora – muallif uslubini ko‘rsatuvchi poetik vosita;

Metaforada dunyoni anglashning o‘ziga xos usuli akslanadi;

Metafora badiiy matnda mavjud til qonuniyatlarini o‘zida birlashtirgan kichik lisoniy birlikdir;

Metafora – muallif lisoniy tafakkurining so‘zda zohir bo‘lishi;

Metaforada etnosning o‘ziga xosligi aks etadi.

Ushbu bobning ikkinchi fasli “**Abduvali Qutbiddin she‘rlarida individual metafora**” deb nomlanib, she‘riyatdagi an‘anaviy obrazlar, umumiy istioralardan tashqari, shoir o‘zi yaratgan metaforik obraz vositasida ijodiy individualligini namoyon etishi ko‘rsatib berilgan. Folklorshunos olim Shomirza Turdimov

¹ Шукуров Э. Сочлари сумбул-сумбул... – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988. – Б. 27.

adabiyotdagi ramzlarni shartli ravishda ildiz va vaziyat ramzlar tipiga ajratib ko'rsatish mumkinligini aytadi¹. Bunda olim ildiz ramzlar deganda an'anaviylikni, vaziyat ramzlar deganda esa individuallikni nazarda tutadi. Undan avvalroq esa Asqarali Sharopov Navoiy lirikasidagi an'anaviy va ramziy obrazlarning spetsifikasi jihatdan tadqiq etish lozimligini aytadi². Bunda "ramziy obraz" deganda an'anaviy bo'lmagan, shoirning o'zi yaratgan obrazlarni nazarda tutadi. Olim "Ta'viz-ul oshiqin" ("Oshiqlar tumori") devoni haqida gapirib, "Ogahiy an'anaviy obrazlardan faqat poetik ramz sifatida foydalanibgina qolmay, o'zi ham yangi-yangi ramziy obrazlar izladi", –deydi³. A.Sharopovning ushbu fikri yuqoridagi shartli bo'linishga to'la mos keladi. Bu bo'linishni metafora misolida keyinchalik adabiyotshunos Bahodir Sarimsoqov ta'kidlagan⁴. Mazkur ajratish tilshunoslikda ham mavjud bo'lib, professor Nizomiddin Mahmudov ham ularni ikkiga ajratadi: 1. Individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar; 2. Umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar⁵.

Yuqoridagi uchta holatda ham ramzlar, metaforalar, o'xshatishlar ikki turga ajratilar ekan, mohiyat yagonaligicha qolaveradi. Bir-biridan to'la ajratmagan holda metaforalarni ham ikki tur sifatida ko'rsatish mumkin:

1. An'anaviy metaforalar;
2. Individual metaforalar.

Aslini olganda, an'anaviy metafora ishlatib ham voqelikka nisbatan subyektiv bahoni berish mumkin. Lekin bunda, o'z nomi bilan aytilayotganidek, metaforalar an'anaviy bo'ladi. Shundan kelib chiqib, individual metafora ijodkorning dunyoni qanday idrok qilayotganini yana-da aniqroq ko'rsatib turadi, deyish mumkin. Tadqiqotning ushbu faslida Abduvali Qutbiddin ijodidagi individual metaforalar haqida so'z boradi. Shu boisdan bitta metaforik obrazning o'nlab she'rlarda takror kelishi hisobiga tahlilda ham ushbu takrorning, ya'ni Osima obrazining ko'p bora ta'kidlanishini inobatga olish lozim bo'ladi.

Osima – Abduvali Qutbiddin she'riyatida ko'p takrorlanuvchi metaforik obraz. Ushbu obraz qatnashgan she'rlarning aksariyatida Osimaga murojaat qilinadi. Zamonaviy she'riyatimizda murojaatga qurilgan she'rlar ko'p. "*Ko'ngil, sen bunchalar nega, / Kishanlar birla do'stlashding?*" (Cho'lpon), "*Yurak, sensan mening sozim*" (U.Nosir), "*Qachon xalq bo'lasan, sen, ey olomon?*" (A.Oripov), "*Qolgan bo'lsa biror zil tosh, / Bolam, kuchim yetmagandir...*" (U.Azim), "*O'tinchim tepamda yig'lama uzoq, / Lola, lolajonim, lolaqizg'aldoq*" (M.Yusuf) kabi satrlardagi murojaatlar shu she'r doirasida aytiladi va aksariyat hollarda boshqa she'rlarda takrorlanmaydi. Abduvali Qutbiddin "Osima"ga murojaati esa bir necha o'nlab she'rlarida takror kelaveradi. Ushbu murojaatlarda ba'zan

¹ Турдимов Ш. Поэтические символы в узбекских народных лирических песнях. Автореф. дисс. канд. фил. наук. – Ташкент, 1987. – С. 9.

² Шаропов А. Оламлар ичра оламлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. – Б.124.

³ Шаропов А. Оламлар ичра оламлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. – Б.126.

⁴ Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. (Тўпл. Ҳ.Аҳмедов) – Тошкент: Bookmany print, 2022. – Б. 51.

⁵ Маҳмудов Н. Ўхшатишларнинг тил ва нутқдаги ўрни / Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. –Б. 161.

umid, ba'zan taskin ilinji, ba'zi hollarda esa to'g'ridanto'g'ri ayol kishiga qarata aytilishi (ismga yaqin) holatlari ham uchraydi:

Osima!
Bizga yot tevarak – chovut,
Atrof qisirlaydi.
Qisadi – panja,
Yupunsan, kiygali sovuting yo 'qmi,
Jirkanchdir iskanja¹.

Bu yerda Osimaga murojaatbilanbirga, shuningdek, bir butunlikni his qilish holati ham bor: tevarak – chovut “senga yot...” emas, “bizga yot...”. Shoir o'zini ham Osimaning yonida ifoda qilyapti. Shu bilan birga, Osimani asrash, uni “jirkanch iskanja”dan ehtiyot qilish istagi bor. **Mazkur she'rda ko'ngil metaforik holatda Osimaga aylanib ketyapti. Osima – shoir yaratgan ideal obraz.** O'sha ideal obraz faqat uninggina xayollarida, demakki, uninggina she'rlarida mavjud. Mana shu yerda Osima obraziga yuklangan sirning jilvalari ko'rina boshlaydi. **Ideal obraz metaforik holatda an'anaviylikdan chiqib, to'la individuallikka o'tadi.**Inson tafakkuridagi voqelikning estetik idealga aylanish jarayoni individual metafora sifatida bo'y ko'rsatyapti. Osima orqali Abduvali Qutbiddin o'z idealini yaratmoqchi bo'lgan, desak, bu ideal faqatgina shoirning emas, tildantilga, qondanqonga, gendangenga o'tib kelayotgan mezonlarning umumlashgan ifodasi deyish mumkin. Bu ifodani esa shoir umumlashtirgan. Uning individualligi aynan mana shu yerda.

Shu o'rinda Osima ismining lug'aviy ma'nosini ham keltirib o'tish joiz. Manbalarda bu so'zning ma'nosi “qo'riqlangan, himoyaga olingan yoki iffatli” tarzida keltirilgan². Demakki, ismning o'zida ham atay olingandek birmuncha mavhumlik bor. Ushbu obraz qatnashgan har bitta she'rda unga ma'lum bir yuk yuklanadi. Sir mana shu yerda ochila boshlaydi.

Ichikdim. Sog'indim seni, shekilli,
Xo'rligim keltirar g'alati gina.
Nimaga odamlar shod, hurram, mamnun,
Bizlar odammasmi,
Osima?!


Aynan ana shu so'nggi satrda Osimaning kimligi bir qadar anglashilgandek. Birinchi banddagi “*Osima – sen kimning qizi?*” so'rog'i birgina bu she'rga tegishli emas. Umuman, boshqa she'rlardagi osimalarning mohiyati anglanadi bu yerda. Ilviragan ko'rpa, ilviragan yostiq, o'yga ham, uyga ham sig'mayotgan oshiq holati. Hatto qarg'ishi ham duoga yo'g'rilib ketadigan oshiqning Osimaga munosabati shu yerda yana-da ochiqlanadi. “*Bizlar odammasmi, / Osima?!.*” Oshiq ham, ma'shuqa ham hech kimga o'xshamaydi, ular bu yerning odami emas.

Sh.Turdimov adabiyotdagi biror bir metafora (istiora)ning timsoliy mazmun kasb etishi uchun quyidagi bosqichlarni o'tishi lozimligi aytadi³:

¹ Кутбиддин А. Хаёл кечаси. – Тошкент: Ёзувчи, 1994. – Б. 24.

² Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. — Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – Б. 328.

³ Ш.Турдимовнинг “Сўз табиати” маколasi қўлёзмасидан.



Bu yerda obraz avval o'xshatish bo'lib kelishi ko'rinyapti. Ya'ni “-dek”, “-day” qo'shimchalari “kabi”, “singari” so'zlari bilan qo'shilib, o'xshatuvchi so'z o'xshatilmishning ma'lum bir xususiyatlarini aks ettiradi. So'ngra o'xshatuvchi va o'xshatilmish so'zlari yaxlitlanib, matnda o'xshatuvchi so'zning o'zi qoladi va u metafora (istiora)ga aylanadi. Metafora esa bora-bora matn talabi yoki jarayon zaruratidan kelib chiqib, ramz sifatida ko'rsatiladi. Ramz esa vaqtlar o'tib timsol darajasiga ko'tariladi. **Agar Osimani Abduvali Qutbiddin she'rlari doirasidagi (individual) timsol deyidigan bo'lsak, timsol darajasiga borish uchun u avval ramziy ma'no kasb etishi, undan ham avval metaforik holatda bo'lishi kerakligini ham yodda tutmoq lozim. Metaforik holatni ushbu obraz o'ziqatnashgan har bitta she'r doirasida o'tab bo'lgan.** Ya'ni o'sha she'rlarning har birida obrazga u yoki bu mazmun yuklangan. Umumiy holatda esa umid, taskin va orzuning yaxlit ifodasi. Bu ifodani bir nechta o'xshatishlarga asoslangan, o'sha o'xshatishlar yaxlitlangan metaforik obraz deyish mumkin.

Endi Osimaning ramz va timsol borasidagi taqdiriga keladigan bo'lsak, bu jarayonni mazkur obrazning vaqt o'tib matn doirasidan chiqishi belgilaydi. Xuddi Jo'lomon, Nayman ona, Layli, Shirin kabi. O'shanda Osimani faqatgina Abduvali Qutbiddin she'rlari doirasida emas, umumiy mazmundagi ramz yoki timsol desak bo'ladi. **Hozircha u – individual metafora.**

Tadqiqotning uchinchi bobi “**Lirikada shakl va mazmun uyg'unligi**” deb nomlangan. Uning birinchi faslida “**She'riyatda sodda va kengaygan metafora**” masalasi o'rganilgan. She'rdagi metaforalar kamdankam hollarda bitta so'z yoki bitta jumladan iborat bo'ladi. Aksariyat hollarda metaforalar murakkab shaklda keladi. Bir nechta obraz yoki metaforik holatlarning bitta metaforaga tizilishi uning ifodaviyligini yana-da oshiradi.

R.Qo'ng'urov metaforalarni tuzilishiga ko'ra ikki guruhga ajratadi:

1. Sodda metaforalar. 2. Kengaygan metaforalar¹.

Shuningdek, ushbu bo'linish lingvistikada boshqa olimlar tomonidan ham xuddi shu ko'rinishda guruhlarga ajratilgan². B.Umurqulov esa bu ikki turga quyidagicha ta'rif beradi: “Sodda metafora shaklan bir so'zdan; kengaygan metafora birdan ortiq so'zdan iborat”³. Ammo “birdan ortiq so'z” tushunchasini shunchaki so'zlar jamlanmasi deya tushunmaslik lozim. Ya'ni metaforik ma'noni ifodalab kelayotgan birdan ortiq har qanday so'z ham kengaygan metafora bo'la olmaydi. “Kengaygan metaforalarning xarakterli xususiyati shundaki, so'z metafora o'zi bog'lanib kelayotgan so'z bilan mustahkam aloqaga kirishishi

¹ Кўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. –Б. 16.

² Султонсаидова С, Шарипова Ў. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Юрист-медиа маркази. 2019. – Б. 68.; Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. –Тошкент: Фан, 1990. – Б.64.; Сувонова Р.А. Метафоры и его функционально-стилистические особенности в поэме Эркина Вохидова // Ученый XXI века. – Шеффилд, 2019.- № 5-2 (52). – С. 53.

³ Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. –Тошкент: Фан, 1990. – Б.64.

natijasida metaforik ma'no ifodalaydi"¹. Kengaygan metaforada turli metaforik tasvirlar bir-biriga bog'lanib turishi yoki bir-birini to'ldirishi lozim bo'ladi. She'rda u ba'zan jumlar, ba'zan satrlar, ba'zi hollarda esa bir nechta satrlarni qamrab olishi mumkin. Shu boisdan ba'zan bir nechta sodda metaforalarning birikishidan ham hosil bo'ladi. Ba'zida kichik o'xshatish va metaforalar ham birikib kengaygan metaforani tashkil qiladi. Eshqobil Shukurning "Umr" she'ri:

*Bir qo'shiq keltirdi meni bu yerga,
Keltirdi bir uzuq novdaga qo'shib.
Kech kuz gulga kirar yetti qobirg'am,
Meni olib ketar yana bir qo'shiq².*

She'r bor-yo'g'i to'rt qatordan iborat. Undagi metaforalar dastlab sodda shaklda tahlil qilinsa, eng birinchi navbatda "qo'shiq" so'zining "keltirdi" va "olib ketar" fe'llari orqali shaxslantirilgani, ya'ni metaforik holatga kelganini ko'ramiz. Ammo bu so'z she'rning ikki o'rnida ikki xil ma'noni anglatayotgani sababli undan oldingi aniqlovchi ham qo'shib bir jumla sifatida qabul qilinadi. She'rdagi kengaygan metaforalarni sanab chiqamiz: "**Bir qo'shiq**" – alla; "**Uzuq novda**" – beshik; "**Kech kuz**" – umrning oxiri; "**Yana bir qo'shiq**" – janoza. Bu yerda "*bir qo'shiq*" va "*yana bir qo'shiq*" jumlarini alohida keltirganimizning sababi, mazkur metaforalar shaklan bir xil bo'lsa-da, ifodalayotgan mazmuni ikki xildir.

Shoirning "Nega yig'layapsiz..." deb boshlanadigan she'rda metaforalarham shakl, ham mazmun jihatdan kengayganini ko'ramiz:

*Nega yig'layapsiz, qo'llarim?
Oyoqlarim, nega
Yulib tashlayapsiz tirnog'ingizni?
Bor-yo'g'i uch ming yil yashadik hali
Tosh asrida, temir asrida.
Nega yig'layapsiz, qo'llarim,
Oyoqlarim, nega yig'laysiz?
Hali manzil uzoq odam asriga³.*

Ushbu she'rda, yuqorida aytganimizdek, ham shakl, ham mazmun jihatdan kengaygan ikkita metafora bor: 1. "**Bor-yo'g'i uch ming yil yashadik hali**" – odamzod paydo bo'lganiga uch ming yil bo'ldi. 2. "**Hali manzil uzoq odam asriga**" – odam bekam-u ko'st yashaydigan davr hali kelmaydi. Ushbu satr haqidagi yana bir talqin shundan iboratki, shoir bu yerda o'z-o'ziga murojaat qilib, butun Odam farzandlarining azob-uqubati va bu uqubatlarning davomli ekanligiga, inson odamiylikning eng yuqori cho'qqisida bo'lishi kerak bo'lgan davrga urg'u beryapti. Ya'ni "odam bekam-u ko'st yashaydigan davr"ni jannat sog'inchi deb ham ifodalashimiz mumkin bo'ladi. Jannatda odamning kam-u ko'sti bo'lmasligi "odam asri" ishorasi bilan berilyapti.

Mana shu ikki misol yuqorida kengaygan metaforaga berilgan ta'rifni badiiy jihatdan yana-da boyitadi va to'ldiradi. Ya'ni kengaygan metafora leksikologik

¹ Умурқулов Б. Ўша манба. – Б.64.

² Шукур Э. Яшил қушлар. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – Б. 106.

³ Шукур Э. Яшил қушлар. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – Б. 62.

tomondan ikki yoki undan ortiq soʻz bilan ifodalanishi aytiladi. Badiiy tahlilda esa u faqatgina soʻzlar soniga qarab belgilanmaydi. Uning mazmuni, ifoda yoʻsini, tasvir imkoniyatlarida ham kengayishi koʻrinadi. “O, meni yigʻlatma” deb boshlanuvchi sheʼrda ham bir necha kengaygan metaforalarni koʻrishimiz mumkin. Masalan, *“Yomon tushlar koʻrgan namozshomgul”* – “kuni yomon oʻtgan gul” metaforasi. Bu metaforaning “kuni yomon oʻtgan” mazmunida ifoda qilayotganimizning sababi namozshomgulning kun qorayganda ochilib, kechasi bilan yashnab turadigan, quyosh chiqqanda esa yana oʻz holiga – ochilmagan holatiga qaytadigan gul ekanligidir. Bu gulning *“yomon tushlar koʻrishi”* holati esa tushning odatiy tunda emas, kunduz kuni koʻrganiga ishora. Undan keyingi kengaygan metaforalarni navbatma-navbat keltiramiz:

“Men poyipatagingboʻlay” – “iltimos qilaman, yolvoraman”; *“Otingdan aylanay”* – izhor (isingini eshitsam, mamnun boʻladigan darajada sevaman); *“Uhtortsang,ustuniquarfalakning”* – “sen xomush boʻlsang, butun dunyo, hatto falak ham bezovta”; *“Koʻkrak qafasiga ayolning yuragi qoʻyilgan erkak”* – “koʻngli boʻsh odam”.

Shunday qilib, tilshunoslikda birdan ortiq soʻzdan iborat barcha metaforalar kengaygan metafora sifatida koʻrsatilsa, badiiyatdagi kengaygan metaforalar faqatgina soʻzlar soniga qarab belgilanmaydi. Uning leksik-semantik mazmuni, ifoda yoʻsini, tasvir imkoniyatlari ham kengayadi.

Bobning keyingi faslida **“Eshqobil Shukur ijodida “sheʼr-metafora” hodisasi”** tadqiq qilingan. Sheʼrdagi fikr ifodasida mazmun bir nechta metaforaga jo boʻlishi va natijada butun bir sheʼr yaxlit metaforaga aylanishi koʻrsatilib, nazariy asoslari keltirilgan. Oʻzbek adabiyotida shunday sheʼrlar borki, ularni metaforik tahlil qilganda yaxlit satrlar, butun boshli band yoki sheʼrning oʻzini olishga toʻgʻri keladi. Bunda metaforalanayotgan obyekt sifatida bir jumla yoki soʻz emas, holat qabul qilinadi. Masalan, Abdulla Oripovning mashhur *“Tilla baliqcha”* sheʼri (sheʼrning asosi “tilla baliqcha – gʻaflatdagi odam” metaforasi hisoblanadi), Usmon Azimning *“Yomgʻir haqida ballada”*si (yomgʻir – oshiq), Abduvali Qutbiddinning *“Subhlar hoʻplaydi...”* deb boshlanuvchi (birinchi aprel – yolgʻon aytiladigan kun) va shu kabi sheʼrlarda metafora butun bir sheʼrning oʻzida namoyon boʻladi. Bu kabi sheʼrlar, ayniqsa, Eshqobil Shukur ijodida koʻp uchraydi.

Biz odatda filologik (lingvistik yoki badiiy) tahlillarda ishlatiladigan metaforalarni shartli ravishda “soʻz-metafora” deb olamiz. Chunki bu holatda soʻzlashuvdagi gap yoki tahlil etilayotgan badiiy asar (bizning tahlilimizda – sheʼr) tarkibidagi bir soʻzning metaforalanish holatini koʻramiz. Yana shunday metaforalar borki, ular bir soʻzdan emas, ikki yoki undan ortiq soʻzdan, asosan, jumladan iborat boʻladi. Buni esa shartli tarzda “birikma – metafora” deb olamiz. Aslida, “soʻz-metafora” yoki “birikma-metafora” degan qarashlar adabiyotshunoslikda avvaldan bor. Faqat biz uni bu soʻzlar bilan emas, oddiygina metafora deb ishlatamiz. Eshqobil Shukurning *“Ikki dunyo oraligʻidagi qofiyasiz tushlar”* turkumiga kirgan quyidagi sheʼridagi metaforalar, tashbehtar, oʻxshatishlarning barchasi bitta metaforik holatni ochib berishga xizmat qilyapti:

*Osmon balchig'ida notavon qushday
Uchib borayotir xaroba bir uy.
Toptalgan erk kabi, kuygan kitobday
Uchib borayotir xaroba bir uy.
Odamlarin yerga lash-lushday tashlab
Ko'chib borayotir xaroba bir uy¹.*

Mazkur she'rning o'zi butunligicha bitta metafora bo'la oladi. She'rdagi bosh metaforik holat – “xaroba uy” asosni tashkil qiladi. Garchi she'rda kelayotgan “osmon balchig'i”, “notavon qush”, “kuygan kitob” kabi o'xshatish va metaforalar o'z holicha ham ma'lum bir tasvirni bera olsa-da, bosh maqsad “xaroba uy – o'tayotgan umr” metaforasini ochib berishga xizmat qilyapti. Xaroba uyni o'tayotgan umr sifatida qabul qilganimizda esa “uchib borish”, “ko'chib borish”, “yerga tashlangan odamlar” kabi holatlar ham anglashilib boradi. She'r “Ikki dunyo oralig'idagi qofiyasiz tushlar” turkumidan olinganini inobatga olsak, asosiy metaforik holat yana-da teranroq gavdalanadi.

Tadqiqotda “she'r-metafora” tushunchasining “ko'p qatlamli metafora” yoki “bitta she'rda bir nechta metaforalarning kelishi” holatlaridan tafovutlari ham ochib berilgan. Shoirning “*Ko'ngil qushlari*” she'ridan parcha keltirishdan oldin nomning o'ziyoq metaforadan iboratligini ta'kidlab o'tmoqchimiz. Mohiyatan she'r ana shu metaforaga qurilgan.

*“Bu qushlar – ko'r qushlar, tug'ma ko'r qushlar,
O'ttiz yil boqayapman yurak yedirib.
Arslon o'z bolasin turganday tishlab,
Turar tumshuqlarin dilga botirib...”²*

She'rning birinchi va so'nggi bandida lirik qahramonning ayolga murojaati ham borki, bu tahlil davomida “she'r-metafora” tushunchasidan biroz chalg'itishi mumkin, biroq o'sha murojaat-u boshqa metaforalar ham “ko'ngil qushlari”ni ifodalashdek bosh maqsadga bo'ysundirilgan.

Tilshunos olim, professor D.Xudoyberganova o'zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqinini tadqiq etar ekan, “metaforik mazmunli matnlar” jumlasini ishlatadi³. Bu yerda gap faqatgina matndagi metaforalar emas, o'sha matnning o'zi ham metaforik mazmun kasb etishi haqida ketyapti. Olimaning fikricha, matn semantikasida mavjud bo'lgan kognitiv metaforalarni ularning til sathiga ko'ra tasnifi asosida tahlil qilish lozim. Ya'ni: a) so'z shaklidagi metaforalar; b) so'z birikmasi shaklidagi metaforalar; v) gap shaklidagi metaforalar; g) mikromatn shaklidagi metaforalar⁴.

Rossiyalik shoir va publitsist Y.Stepanov “Neva” jurnalida chop etilgan maqolasida “she'r-metafora” iborasini “стихотворение-метафора/мегаметафора” tarzida ishlatadi⁵. Y.Stepanov maqolada Gennadiy Ayga va Viktor Sosnorani rus

¹ Шукур Э. Яшил қушлар. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – Б. 63.

² Шукур Э. Яшил қушлар. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – Б. 54.

³ Худайбергано́ва Д. Матнинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.61.

⁴ O'sha manba. – Б.50.

⁵ Степанов Е. Стихотворения-метафоры Геннадия Айги, Виктора Сосноры и Валерия Прокошина // Нева.– СПб, 2021. - № 8. 2021. – С. 213-220.

she'riyatida yangi yo'nalish yaratgan shoirlar sifatida ko'rsatib, aynan "megametafora" istilohini qo'llaydi. Y.Stepanov "стихотворение – метафора / мегаметафора" iborasiga ham, "megametafora" istilohiga ham izoh bermaydi. Maqoladagi G.Ayga va V.Sosnora she'rlaridan berilgan misollar esa biz yuqorida "she'r-metafora" atamasiga ko'rsatgan ta'riflarimizga yaqin keladi. Maqolada "stixotvoreniye-metafora" iborasiga sinonim sifatida qo'llangan "megametafora" atamasi biroz bahsli. Fikrimizcha, "mega" frazasini katta, ulkan, yirik ma'nosida oladigan bo'lsak, megametaforani shakl bilan bog'liq hodisa sifatida tushunish mumkin bo'ladi. Demak, katta mazmunni o'zida jamlagan kichik lug'aviy birliklar sifatida qaralsa, mazmunni anglash osonroq kechadi. Rus tilshunos olimlari Zoya Rezanova va Konstantin Shilyayevning hammualliflikda yozilgan maqolasida¹ bu tushuncha kengaytirilgan metafora sifatida qo'llanadi. Ular bir nechta metafora va badiiy san'atlarning yig'indisini megametafora sifatida ko'rsatib, Jek London romanlari asosida tahlil qiladi. Demak, bu atamaning she'riyatga to'la daxldorligi hali o'z asosini topmagan.

Adabiyotshunos O.Karimov Abdulla Oripov she'riyatidagi metaforik tizimlarni tahlil qilish jarayonida "she'r-metafora" degan atamani qo'llamay turib ham shu mazmundagi fikrni bildiradi. "...Ayrim hollarda she'r to'laligicha bitta metaforani, metaforik obrazni yaratishga safarbar etilgan bo'ladi. Tabiiyki, bu holda she'rda ishlatilgan boshqa badiiy vositalar, jumladan, boshqa metaforalar ham o'sha bosh maqsadga bo'ysundiriladi", – deydi olim².

"She'r-metafora" tushunchasiga sintaktik tomondan qaralganda "izohlovchi-izohlanmish" munosabati yuzaga keladi. Tilshunoslikda aynan mazkur holatga quyidagicha izoh berilgan: "Izohlovchi va izohlanmish umumiy va aniq ma'noni bildiruvchi turdosh otdan iborat bo'lsa, aniq ma'noni bildiruvchi ot izohlovchi, umumiy ma'noni bildiruvchi ot izohlanmish bo'ladi. Yozuvda ular orasiga chiziqcha qo'yiladi"³. Bu yerda asosiy e'tibor "metafora"ga qaratilayotgani sababli ("so'z-metafora", "jumla-metafora") "she'r" so'zi izohlovchi hisoblanadi.

Demak, "she'r-metafora" tushunchasining sintaktik isbotidan so'ng unga badiiy talqin jihatidan quyidagicha ta'rif beramiz: she'r-metafora – bu she'rdagi bir nechta badiiy san'atlar va metaforalar she'ring asosini tashkil qiluvchi bitta metaforani izohlashga xizmat qilishidir. Bunda she'ring o'ziga butunligicha bitta metafora deb qaraladi. She'ring ichidagi metaforalar ajratib olinganda ham o'sha bosh metaforaga bo'ysundiriladi.

¹ Rezanova Z., Shilyaev K. Megametaphor as a coherence and cohesion device in a cycle of literary texts // The Poznan Society for the Advancement of Arts and Sciences.– Poznan, PL ISSN 0079-4740. – Pp. 31-39.

² Каримов О. Абдулла Орипов шеъриятида метафорик образлар тизими: Филол. фан. номз... дисс... – Тошкент, 2012. – Б. 42-45.

³ Менглиев Б., Холиёров Ў. Ўзбек тилидан универсал қўлланма. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 258-259.

XULOSA

1. Davr va adabiyot o‘zaro chambarchas bog‘liq ijtimoiy, madaniy va ma‘naviy voqelik sanaladi. Shunday ekan, davriy o‘zgarishlar poetik idrok ko‘lamining kengayishiga va sifat jihatidan yangilanishiga zamin bo‘lib xizmat qildi. Badiiy tafakkurdagi evrilishlar, xususan, XX asr oxiri, XXI asr avvali adabiyotida, ayniqsa, she‘riyatda metaforik tafakkurni adabiy estetik ehtiyoj sifatida yuzaga keltirdi .

2. Metaforik tafakkur – bu badiiy tafakkurning ajralmas bir qismi bo‘lib, bunda ma‘lum bir jarayon tushuniladi. U poetikaning ham, falsafaning o‘rganilish obyektidir. Metafora esa metaforik tafakkurning hosilasi, lekin bu hosila yolg‘iz metaforaning o‘zidagina iborat emas. O‘xshatish, sifatlash, qiyoslash, parallelizm, ramz, timsol kabilar ham metaforik tafakkurning mahsuli hisoblanadi.

3. Metafora she‘rda poetik vosita vazifasini bajarsa, metaforik tafakkur she‘r orqali fikr yuritish hodisasi hisoblanadi. She‘riyatda metafora va tasvirlardan foydalanish fikrlash va fikrni shakllantirish usulidir. Metaforik tafakkur jarayoni esa tuyg‘u bilan birga, shuningdek, idrok va bilimorqali ham hosil bo‘ladi.

4. Tilshunoslikda metaforaning vazifasi faqatgina nomlash bilan chegaralanadi. Badiiyatda bu chegara biroz kengayadi. Faqatgina nomlash bilan cheklanib qolmasdan, ifoda ham etadi. Ya‘ni qiyoslash, fikr va tuyg‘u ifodasi orqali mazmuni yoritadi.

5. Shoirning dunyoni qanday ko‘rishi, idrok tarzi va ifoda yo‘sini metaforik tafakkur jarayonida aniq namoyon bo‘ladi. Demak, metaforik tafakkur tushunchasi hissiy, zavqiy va aqliy jarayonlarning umumlashuvidir.

6. Serqatlam, ko‘p ma‘noli va an‘anaviy metaforalar har bir shoir ijodida individual hodisa sifatida o‘zligini namoyon qiladi. Shu bilan birga, she‘riyatdagi an‘anaviy obrazlar, umumiy istioralardan tashqari, shoir yaratgan metaforik obrazlar ham mavjud.

7. She‘rda an‘anaviy metaforadan foydalanib ham voqelikka nisbatan subyektiv bahoni berish mumkin. Lekin bunda metaforalar o‘z nomi bilan an‘anaviy bo‘ladi. Individual metaforalar ijodkorning dunyoni qanday idrok qilayotganini yana-da aniqroq ko‘rsatib beradi.

8. Osima – Abduvali Qutbiddinning o‘zbek she‘riyatiga olib kirgan individual badiiy topilmalaridan biri. Ushbu obrazni shoir she‘rlari doirasidagi (individual) timsol deyish uchun u avval ramziy ma‘no kasb etishi, undan ham oldin metaforik holatda bo‘lishi kerak. Ayni holatda u – Abduvali Qutbiddin she‘rlari doirasida ramziy ma‘no kasb etayotgan metaforik obraz.

9. Badiiyatda birdan ortiq so‘z bilan ifodalangan har qanday metafora ham kengaygan metafora bo‘la olmaydi. Tilshunoslikdan farqli ravishda uning mazmuni, ifoda yo‘sini, tasvir imkoniyatlari ham kengayishi lozim. Shuningdek, u bir vaqtning o‘zida bir nechta metaforalarni ham qamrab olishi mumkin.

10. Abduvali Qutbiddin she‘rlarida bir so‘z yoki jumlaning olib tahlilga tortish, metaforalanayotgan va metaforalayotgan so‘zlarni ko‘rsatib berish mumkin. Ammo Eshqobil Shukur she‘rlaridagi metaforik holatlarni tahlil qilish jarayonida

yaxlit satrlar, ikki satr yoki butun boshli bandlarni olishga to'g'ri keladi. Bunda metaforalanayotgan obyekt sifatida bir jumla yoki so'z emas, holat qabul qilinadi. Metaforalar kontekstdan ajratib olinganda ular birmuncha o'z metaforaligini yo'qotadi, ya'ni metafora bo'lmay qoladi.

11. Eshqobil Shukur she'rlaridagi o'ziga xosliklaridan biri she'r-metaforahodisasidir. She'r-metafora – bu she'rdagi bir nechta badiiy san'atlar va metaforalar she'rning asosini tashkil qiluvchi bitta metaforani izohlashga xizmat qilishi. Bunda she'rning o'ziga butunligicha bitta metafora deb qaraladi. She'rning ichidagi metaforalar ajratib olinganda ham o'sha bosh metaforaga bo'ysundiriladi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 AT THE INSTITUTE OF
UZBEK LANGUAGE, LITERATURE AND FOLKLORE**

**ACADEMY OF SCIENCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE, LITERATURE AND FOLKLORE**

MUKHAMMADIYEV DADAKHON ABDUKHAMIDOVICH

**THE NATURE OF METAPHORICAL THINKING IN
MODERN UZBEK POETRY**
(based on the poems of Eshqobil Shukur and Abduvali Qutbiddin)

10.00.02 – Uzbek literature

**DISSERTATION ABSTRACT OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)
ON PHILOLOGICAL SCIENCES**

Tashkent – 2024

The theme of dissertation for the degree of the Doctor of Philosophy (PhD) was registered at the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan with the number B2022.2.PhD/Fil2454.

The dissertation was completed at the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian) on the website of the Scientific Council at www.tai.uz and on the information and educational portal "Ziyonet" at www.ziyonet.uz.

Scientific supervisor:

Tulaganova Sanobar Panjiyevna
doctor of philological sciences

Official opponents:

Jabborov Nurboy Abdulhakimovich
doctor of philological sciences, professor

Afokova Nodira Mahmudovna
doctor of philological sciences, professor

Leading organization:

**Museum of literature named after
AlisherNavoi**

The defense of the dissertation will be held at the meeting of the Scientific Council numbered DSc.02/30.12.2019.Phil.46.01 under the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan on 20 "December" 2024, at 11:00 (Address: 100060, Tashkent city, Shakhrisabz street, 5. Phone: (71) 233-36-50; fax: (71) 233-71-44; e-mail: uztafi.@academy.uz.)

The dissertation can be found in the fundamental library of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan (registered with No. 75). Address: 100100, Tashkent, Ziyolilarstreet, 13. Tel.: (71) 262-74-58.

The abstract of the dissertation was distributed on "5" December 2024.
(Registry report No. 9 dated "5" December 2024).



B.Tukhliyev

Chairman of the Scientific Council
awarding scientific degrees,
doctor of sciences on philological, professor

R.Barakayev

Scientific Secretary of the Scientific Council
awarding scientific degrees,
candidate of sciences on philological, professor

U.Hamdamov

Chairman of the academic Seminar under
Scientific Council awarding scientific degrees,
doctor of sciences on philological, professor

INTRODUCTION

(annotation of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD))

The relevance and necessity of the dissertation work. The study of metaphor in world literature has roots that trace back to ancient times. As a linguistic and artistic-aesthetic phenomenon, metaphor serves as a medium for everyday communication and has been explored across various academic disciplines. By the end of the 20th century, scholars from diverse regions, particularly philosophers, have examined the emergence, formation, and application of metaphor at multiple levels of meaning. The significance of metaphorical thinking in literature, especially in poetry, is determined by its poetic importance and its nature as an artistic-aesthetic phenomenon. Therefore, the scientific and theoretical study of this aspect is considered one of the pressing issues in contemporary literary studies.

The world literary studies, the artistic-linguistic aspects of metaphorical thinking and the lexical-semantic composition, structure, and role of metaphor within the poem's structure remain one of the theoretical problems that have not been fully explored. The unique characteristics found in the poetry of various nations and the works of world poets become distinctly visible when studied within the framework of metaphorical thinking, highlighting the creator's style and individuality. In this regard, examining metaphor in connection with cognitive styles is essential for uncovering its understanding and representational properties.

During the period of independence, Uzbek modern literature, particularly traditional poetry, experienced significant transformations in both form and content. The expression of feelings or ideas in unconventional ways, along with the influence of oral folk traditions and mythological thinking, expanded the possibilities of expression. The system of finger poetry, which has long existed in folk songs, lapars, and epics, manifested in a new form at the beginning of the 20th century. Strengthened by the works of poets like Chulpon, Fitrat, and Usmon Nosir, this metric evolved in terms of content, form, and melody until the end of the century. In the 1970s and 80s, Uzbek poetry underwent radical changes. The generation of poets influenced by Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Matjon, and Rauf Parfi breathed new life into poetry. Prominent poets of the era, such as Usmon Azim, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon, and Muhammad Rahmon, elevated poetry to a new level and discovered new boundaries of poetic thinking. The subsequent generation, including poets like Abduvali Kutbiddin, Eshkobil Shukur, Aziz Said, Bahrom Ruzimhammad, and Halima Ahmedova, demonstrated a renewal in the nature of metaphorical thinking. Studying the issue of metaphorical thinking in poetry is crucial for identifying the unique nature of poetry in specific periods. "Studying and promoting modern Uzbek literature on an international scale is of great importance, as it is closely linked to the most significant processes occurring in the global literary space today. This involves analyzing these multifaceted topics, drawing necessary scientific and practical conclusions, and setting future tasks"¹.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг «Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини

The presidential decrees of the Republic of Uzbekistan, including the PF-5850 on October 21, 2019, “Regarding the enhancement of the prestige and status of the Uzbek language as a state language”; the PF-6108 on November 6, 2021, “Concerning measures to develop education and science in Uzbekistan’s new development era”; the PQ-2789 on February 17, 2017, “Related to improving the activities of the Academy of Sciences and organizing, managing, and financing scientific research”; and the PQ-3271 on September 13, 2017, “Regarding the development of book publishing and distribution, as well as promoting reading culture-these documents and other relevant regulatory acts serve to implement the tasks outlined in this dissertation research”.

The relevance of the research to the priority directions of the development of science and technology in the republic. This dissertation is conducted in accordance with the priority direction of the development of science and technology in the republic, specifically: I. “Forming and implementing an innovative ideas system for the social, legal, cultural, and spiritual-educational development of an information society and a democratic state”.

The extent of study of the problem. Issues of metaphor and metaphoric thinking have been explored by scholars such as Aristotle, Hegel, J.Lakoff, M.Johnson, M.Turner, N.Arutyunova, and H.Gasset in world literary studies. In Uzbek linguistics and literary studies, the problem of metaphor has been researched by scholars including A.Sharopov, N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, G.Kobuljonova, U.Kobulova, O.Karimov, D.Rustamova, D.Yunusova, N.Suyarova, G.Nasrullayeva, Sh.Makhmaraimova and N.Mirzayeva¹.

In Uzbek literary studies, the works of Abduvali Qutbiddin and Eshqobil Shukur have been partially cited as examples of certain theoretical issues. Specifically, the artistic aspects and stylistic possibilities of Abduvali Qutbiddin's works have been explored in the dissertations of G.Ernazarova, M.Davronova, D.Xursanov, M.Xolova, and Z.Pardayev². Similarly, Eshqobil Shukur's oeuvre,

халқаро микёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари» мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табриги // Халқсўзи. 2018 йил 8 август.

¹ Шаропов А. Оламлар ичра оламлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. – 224 б.; Маҳмудов Н. Тил тилсим тадқиқи. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – 177 б.; Маҳмудов Н. Туйғулар талоши ёхуд сезгилар ҳамкорлиги манзаралари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2023.- № 43(4754); Худойберганова Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.; Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000. – 124 б.; Қобулова У. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (ўзбек халқ топишмоқлари мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 121 б.; Каримов О. Абдулла Орипов шеърятда метафорик образлар тизими. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – 140 б.; Рустамова Д. Метафорик эвфимизациянинг лингвокультурологик ва социопрагматик аспекти. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 53 б.; Юнусова Д. Шавкат Раҳмон шеърятда метафорани ҳосил қилувчи лексик-грамматик воситалар тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2022. – 52 б.; Суярова Н. “Белги” денотатив семали метафораларнинг таснифи, когнитив структураси ва лексикографик талқини. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2021. – 53 б.; Насруллаева Г. Антропоцентриқ метафоранинг лисоний, когнитив ва лингвомаданий аспекти. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2019. – 52 б.; Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентриқ тадқиқи (номинатив аспект). Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2020. – 74 б.; Мирзаева Н. XX аср шеърятда метафорик образ муаммоси (Гарсиа Лорка ва Шавкат Раҳмон шеърят мисолида). Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 132 б.

² Эрнazarova Г. Ҳозирги ўзбек шеърятининг медитатив табиати. Филол. фан. д-ри (DsC) ... дисс.– Тошкент, 2020. – 272 б.; Давронова М. Ҳозирги ўзбек шеърятда индивидуал услуб поэтикаси. Филол. фан. д-ри

along with his journalistic and scientific contributions to the development of the Uzbek language, has been studied within specific themes in the research of I. Ernazarova and G.Oripova¹.

G.Ernazarova and M.Davronova have analyzed some of Abduvali Kutbiddin's poems in the context of Sufi emotions and religious-educational themes. D.Xursanov has also utilized Qutbiddin's poems while researching the concept of artistic time in Uzbek poetry. M.Xolova refers to Qutbiddin's works in the process of studying the poetics of modern Uzbek poetry, noting that he successfully presents traditional expressions in a contemporary form. Z.Pardayev emphasizes that the process of explaining the world and humanity through images and the metamorphosis of various forms is particularly prominent in Qutbiddin's poetry. I.Ernazarova has specifically examined the poet Eshqobil Shukur's mastery of word usage as a subject of study in the field of linguistics. G. Oripova has demonstrated the artistic-aesthetic functions of euphonic tools, expressions, and emphasis that create harmony and musicality in poetry through the works of Eshqobil Shukur and others. N.Umarova presents Eshqobil Shukur and Abduvali Qutbiddin as poets from a generation that expresses both the ideas of freedom and themes of religious faith through poetic art, sometimes openly and sometimes subtly².

It is evident that the works of Abduvali Qutbiddin have been cited as examples of various theoretical perspectives by some researchers. The analysis of metaphor and the nature of metaphoric thinking have not been sufficiently studied scientifically. The poetry of Eshqobil Shukur, in particular, has been nearly untouched in monographic studies. When discussing the renewal of metaphor in poetry, it is essential to understand not only formal changes but also the emotional experiences rooted in popular themes and the modern manifestations of traditional literature. This issue has remained relatively unexplored in our literary studies and has been overlooked. Therefore, this research is significant as it focuses on examining these topics in a monographic context.

The connection of the research with the research plans of the higher educational institution where the dissertation was completed. Specifically, the dissertation was conducted within the framework of the scientific research plan of the Institute of Uzbek Language, Literature, and Folklore, which involves preparing a series of 100 volumes titled "The Treasure of Uzbek Literature" for publication.

(DsC)... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 68 б.; Хурсанов Д. Ҳозирги ўзбек шеърятининг хронотоп поэтикаси. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2020. – 49 б.; Холова М. Ўзбек модерн шеърятининг поэтикаси. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2018. – 51 б.; Пардаев З. Истиқлол даври шеърятининг халқона пафосининг янгиликлари. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 148 б.

¹ Эрнazarova И. Муаллиф сўз ижодкорлигининг лисоний-когнитив таҳлили (Эшқобил Шукур ижоди мисолида) Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2022. – 50 б.; Оripova Г. Мустиқиллик даври ўзбек шеърятининг ғоявий-эстетик ва бадиий хусусиятлари. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2019. – 60 б.

² Умарова Н. Янги ўзбек шеърятининг лирик тафаккур ва миллий этиканинг бадиий уйғунлиги. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2022. – 144 б.

The purpose of the research is to scientifically examine the dialectics of metaphoric thinking and expression in contemporary Uzbek poetry, as well as the manifestation of metaphoric thinking in individual styles, using the poetry of Eshqobil Shukur and Abduvali Qutbiddin as examples.

The tasks of the research:

to explore the historical origins, artistic foundations, and scientific-theoretical characteristics of the concepts of metaphor and metaphoric thinking.

to establish how metaphor and metaphoric thinking have consistently developed in Uzbek poetry, highlighting their national context based on periodic and artistic-historical factors.

to reveal the distinctive style of metaphoric thinking in the poetry of Abduvali Qutbiddin and Eshqobil Shukur, examining aspects related to poem-metaphors and individual metaphors.

to scientifically substantiate the exploration of new forms and meanings in the selected poems, as well as the metaphorical reflection of individual images.

The object of the research includes the poems of Abduvali Qutbiddin and Eshqobil Shukur. Additionally, in order to address theoretical ideas, reveal the spirit of the times, and facilitate comparisons, the works of other poets have also been referenced as necessary.

The subject of the research consists of traditional and individual metaphors, as well as poems characterized by metaphoric thinking in the poetry of Abduvali Qutbiddin and Eshqobil Shukur.

Research methods: This study employed structural, analytical, and comparative-analytical methods.

The scientific novelty of the research is as follows:

The concept of metaphorical thinking in modern poetry is scientifically and theoretically based, and the proportionality of metaphorical thinking in the creative consciousness and psyche has been proven;

It is proven that metaphors such as “faromush bog”, “o‘kinch tilak”, “qizg‘aldoq – ona”, “olovli quchoq”, “dunyoni qaritish” “yetim qasos”, “dard tutgan qabr”, “besh yillik o‘lim”, which form the structure of a particular poem, ensure the harmony of meaning and feeling and are individual phenomena in the work of Abduvali Qutbiddin and Eshqobil Shukur;

The process of transforming the image of "Osima", which is repeatedly used in the poet's series of poems, into an individual metaphor is proven on the example of Abduvali Qutbiddin's poems;

It is proven that Eshqobil Shukur's poems, belonging to a certain category, such as “Ikki dunyo oralig‘idagi qofiyasiz tushlar”, “Qaldirg‘ochning ko‘zyoshlari”, “To‘qqizinchi fevral”, “Anjuman” “Ko‘ngil qushlari”, “Mamatrayim baxshi”, are a special metaphor in terms of their style of expression, poetic possibilities and content, and the concept of "poem-metaphor" is revealed.

The practical result of the research is as follows:

this study holds significant practical value in shedding light on the concept of metaphorical thinking as both an artistic and scientific-theoretical notion, as well

as a poetic phenomenon specific to lyric poetry, and in contributing to the emergence of new theoretical principles in literary studies;

the connection of metaphorical thinking with artistic thinking, modern poetics, and the active social phenomena in contemporary Uzbek poetry, as well as the grounding of a global poetic phenomenon in a national context, serves both scientific research and the academic learning process.

it also serves as a theoretical source for a deeper understanding of modern Uzbek literature, particularly the poetry of Abduvali Qutbiddin and Eshqobil Shukur, as well as the concepts of individual metaphor and poem-metaphor.

The interpretation of the unique features reflected in the works of Abduvali Qutbiddin and Eshqobil Shukur through metaphorical thinking, the metaphorical depictions of the new human identity, and the analysis of social-philosophical and religious-educational themes characteristic of Eastern literature in contemporary Uzbek poetry, along with the resulting scientific conclusions, have a significant practical essence in the development of the spiritual culture and the refinement of scientific and artistic thinking in the younger generation.

The reliability of the research results is explained by the theoretical and practical generalizations derived from the approaches and methods presented in the study, based on the achievements of world and Uzbek literary studies. The structural, analytical, and comparative-analytical methods have been innovated and expanded upon based on examples of national poetry. Furthermore, the obtained results have been validated by reputable scientific organizations and authorized bodies.

The scientific and practical significance of the research is as follows: the scientific importance of the research results lies in the scholarly and theoretical illumination of the issue of metaphorical thinking in contemporary Uzbek poetry through the examples of Eshqobil Shukur and Abduvali Qutbiddin's works. The practical significance of the research is explained by the theoretical insights and reflections that can serve as foundational sources for studying the history of Uzbek literature and literary studies. This includes their application in teaching subjects such as "Literary Theory," "Introduction to Literary Studies," "Contemporary Uzbek Literature," and "Fundamentals of Artistic Analysis," as well as in the creation of textbooks and study guides for these disciplines.

The practical significance of the research results lies in the fact that the materials from this dissertation can be utilized in conducting specialized courses and seminars on literary theory, fundamentals of artistic analysis, and contemporary Uzbek literature. They can also be used to enhance the knowledge levels of doctoral candidates, master's students, and undergraduate students.

Implementation of research results. The findings from the study titled "The nature of metaphorical thinking in modern Uzbek poetry" (based on the poems of Eshqobil Shukur and Abduvali Qutbiddin) include:

the scientific conclusions on the scientific-theoretical basis of the concept of metaphorical thinking in modern poetry, the proven proportionality of metaphorical thinking in the creative consciousness and psyche, were used in the

fundamental scientific project OT-F1-030 "Preparation for publication of 100 volumes of masterpieces of Uzbek literature" carried out at the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Academy of Sciences (reference of the Academy of Sciences number 3/1255-981 dated May 2, 2024). As a result, updates in modern Uzbek poetry, the existing scientific considerations in literary studies were supplemented with the concepts of metaphor and metaphorical thinking, and theoretical views on the poetry of the new era were further enriched;

the theoretical conclusions and qualification recommendations on the basis of which metaphors such as "faromush bog", "o'kinch tilak", "qizg'aldoq – ona", "olovli quchoq", "dunyoni qaritish" "yetim qasos", "dard tutgan qabr", "besh yillik o'lim" that form the structure of a particular poem ensure the harmony of meaning and feeling, and are based on the presence of individual phenomena in the work of Abduvali Qutbiddin and Eshqobil Shukur were used in the fundamental project OT-F1-77 "Publication of the multi-volume monograph "History of Uzbek Literature" (7 volumes)" implemented at the Alisher Navoi University of Uzbek Language and Literature (reference of the Alisher Navoi University of Uzbek Language and Literature number 04/1-222 dated January 29, 2024). As a result, it served to supplement the theoretical views on metaphor existing in literary studies with specific foundations;

the scientific results and conclusions on the transformation of the image of "Osima", which is repeatedly used in the poet's series of poems, into an individual metaphor, as evidenced by the example of the poems of Abduvali Qutbiddin, were used at the reporting meetings of the Poetry Council of the Writers' Union of Uzbekistan, in the activities of the "Onajonim she'riyat" (My Mother is Poetry) circle of young creators, and in skill development classes (reference of Writers' Union of Uzbekistan number 01-03/114 dated January 26, 2024). Through this, young artists were given knowledge and skills in literary theory and literary analysis;

Eshqobil Shukur's poems, such as "Ikki dunyo oralig'idagi qofiyasiz tushlar", "Qaldirg'ochning ko'zyoshlari", "To'qqizinchi fevral", "Anjuman" "Ko'ngil qushlari", "Mamatrayim baxshi", belonging to a certain category, have been proven to be a special metaphor in terms of their style of expression, poetic possibilities and content-essence, and the results and conclusions on the disclosure of the concept of "poem-metaphor" were used in preparing the scenarios for the TV show "Til millat ko'zgusi" (Language is the Mirror of the Nation) of the "Madaniyat va ma'rifat" (Culture and Education) TV channel and the TV show "Ziyo darg'alari" (Rays of Light) of the "Mahalla" TV channel (reference "Madaniyat va ma'rifat" TV channel number 02-16/16 dated January 23, 2024; reference "Mahalla" TV channel number 01-12-77 dated January 25, 2024). As a result, the scientific conclusions presented in the programs served to increase the audience's knowledge of metaphor and metaphorical thinking.

Approbation of the research results. The research results were discussed by the scientific community at a total of 7 international scientific and theoretical conferences (including 1 abroad).

Publication of the research results. A total of 6 scientific papers on the dissertation topic and 7 articles in scientific publications recommended by the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan for the publication of the main scientific results of doctoral dissertations were published, of which 5 were published in republican journals and 2 in foreign journals.

The structure and scope of the research. The dissertation consists of an introduction, three chapters, six sections, a conclusion, and a list of used literature, and has a total volume of 137 pages.

MAIN CONTENT OF THE DISSERTATION

In the **introduction**, the relevance and necessity of the topic is based, the degree of study, purpose and objectives, object and subject of the study are described, the suitability of the work for the priority direction of the development of Republican Science and technology is indicated, the methods, scientific novelty and practical results of the study are described, the scientific and practical significance of the results

The first chapter of the dissertation, titled "**The Specificity of the Nature of Metaphorical Thinking**" consists of two sections. The first section examines the issue of "**The Gradual, Socio-Philosophical and Artistic-Aesthetic Foundations of Artistic Perception in Poetry**". In Uzbek literature, the classical poetry traditions that lasted for centuries took on a new form by the beginning of the 20th century. In the creative samples at the beginning of the century, the gazals written in the aruz rhythm were replaced by examples of the barmoq poetry system with a wider scope. By the end of the century, this system had also been updated, polished, and perfected. Speaking about these transformations, Ulugbek Hamdamov points out "almost completely abandoning eventfulness, imagery, and narration, and instead focusing on metaphors and details"¹ as one of the key features of the direction that took shape in the 90s and 2000s. The generation of poets that entered literature in the 70s and 80s, including U.Azim, Sh.Rahmon, and Kh.Davron, although they did not deviate from the principles of tradition and inheritance, their style differed significantly from the use of language, similes, and metaphors by poets of the 60s generation like E.Vohidov, A.Oripov, R.Parfi, H.Khudoyberdiyeva, and O.Matjon. The subsequent generation of poets including Eshqobil Shukur, Abduvali Qutbiddin, Aziz Said, Halima Ahmedova and Zebo Mirzo exhibit their own unique style and perspectives.

Eshqobil Shukur's work embodies a unique expression of cyclical renewal. While the metaphors in his poetry, both in form and content, are closer to tradition, his novel approach defines his style. Unlike his contemporaries who sought to introduce stylistic innovations, Eshqobil Shukur presented his love for his homeland through the vastness of the steppe, the clean air of the countryside, and the folk tunes of tradition and customs, in a way that is uniquely his own. It's difficult to categorize his work as solely social or solely lyrical. His poems on

¹ Хамдам У. Янгилиниш эҳтиёжи. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 90.

individuality, patriotism, and freedom have a lyrical touch, while those that sing of love, longing, and the pain of love reveal a connection to the people and the land.

Abduvali Qutbiddin's poetry depicts the states of the soul and creates vivid imagery. The poet expresses the rhythms of the time through metaphors and elaborate similes. During that era, the emphasis on religious-educational and mystical themes became increasingly prominent. Although there are mystical tones in Abduvali Qutbiddin's poems, it cannot be said that he fully transitioned into mystical poetry. His works stand out for embodying both modernity and the traditions of classical literature.

As the era influences the renewal of human thought, it naturally impacts metaphorical thinking as well. This phenomenon is particularly evident in Uzbek poetry at the end of the 20th century and the beginning of the 21st century. The research highlights the importance of examining this phenomenon within the framework of metaphorical thinking. The concept of metaphor extends beyond poetry or literature; it has been thoroughly studied in philosophy and linguistics. German philosopher Georg Wilhelm Friedrich Hegel discusses the types and applications of metaphor in his work "Aesthetics." He illustrates the artistic and aesthetic functions of metaphor, as well as the nature and dynamics of metaphorical speech, using examples from the works of creators like Firdausi, Virgil, Shakespeare, Goethe, Heine and Schiller¹. The book "Metaphors We Live By"² by George Lakoff and Mark Johnson is highlighted as a seminal work in this field. George Lakoff is recognized by contemporary scholars as a leading expert in the study of metaphor after Aristotle. Lakoff's theory is unique in its approach to metaphor as a cognitive semantic phenomenon. He views metaphor not primarily as a literary device but as a natural process, an everyday occurrence. Furthermore, he examines metaphor as a universal phenomenon, not merely a linguistic one.

